2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 5 (1331), 2025-yil 9-yanvar, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

YANGI O‘ZBEKISTON G‘OYASI HAYOTIY VOQELIKKA AYLANMOQDA

Adolat va qonun ustuvor

“Global ahamiyatga ega tashabbuslarimiz jahon hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro maydonda O‘zbekistonning raqobatbardosh mamlakat, ishonchli hamkor sifatidagi obro‘-e’tibori yuksalib bormoqda. Hech shubhasiz, bularning barchasi diyorimizdagi barqarorlik, do‘stlik va hamjihatlik natijasidir”. Prezidentimiz O‘zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigida 2024-yil yakunlarini shunday e’tirof etdi. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, BMTning Inson huquqlari qo‘mitasi a’zosi Akmal SAIDOV bilan o‘tgan yil sarhisobi haqida suhbatlashdik.

— Haqiqatan, jahondagi murakkab vaziyatga qaramay, 2024-yil mamlakatimiz uchun qutli va barakali bo‘ldi, — deydi A.Saidov. — Shu ma’noda, o‘tgan yil xalqimizning fidokorona mehnati, siyosiy-ijtimoiy faolligi bilan yangi O‘zbekiston g‘oyasini real voqelikka aylantirish va yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni hayotga tatbiq etishning hal etuvchi davri sifatida tarixga muhrlandi.

O‘tgan yilda inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi milliy qonunchilik va huquqiy amaliyot takomillashtirildi. Jamiyatda inson huquqlari madaniyatini qaror toptirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar bajarildi.

— “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida qanday ishlar bajarildi?

— Avvalo, davlat dasturida har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizda yoshlarga e’tiborni tubdan kuchaytirish hamda katta qismini shijoatli yoshlar tashkil etadigan tadbirkorlar toifasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlar ko‘lamini yanada kengaytirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ijrosi inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etdi. Strategiya tadbirlari BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlarining “hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyiliga hamohang amalga oshirildi.

Davomi 3-betda

Taraqqiyot odimlari

TA’LIM TIZIMIDAGI BUGUNGI ISLOHOTLAR

MAMLAKAT RAVNAQIGA XIZMAT QILADI

Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat barpo etish asosiy maqsad etib belgilangan. Aynan shuning uchun ham davlatimiz rahbari o‘tgan yil yakunida ta’lim tizimida qilingan ishlar va istiqboldagi vazifalar taqdimotiga e’tibor qaratdi. Qolaversa, Yangi Toshkent hududidagi ma’rifat maskanlari — O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda “Yangi O‘zbekiston” universiteti uchun bunyod etilayotgan zamonaviy majmualarning dastlabki qurilish jarayoni bilan tanishdi. Qisqasi, 2024-yil adog‘i ilm-ma’rifat g‘oyalariga uyg‘un holda yangi yilga ulanib ketdi.

O‘tgan bir yilda yurtimizda ko‘plab sohalar qatori ta’lim tizimida ham e’tirofga loyiq, tarixiy voqea deyishga arzigulik o‘zgarishlar, yuksalishlar bo‘ldi. Birgina misol: Abdulla Avloniy nomidagi salkam yuz yillik tarixga ega malaka oshirish institutida zamonaviy binolar qad rostladi hamda shart-sharoiti butunlay yaxshilandi, muassasa pedagogik mahorat milliy instituti sifatida qayta tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari O‘qituvchi va murabbiylar kuni arafasida ushbu ma’rifat maskanida soha fidoyilari bilan uchrashib, bayram bilan tabrikladi. Samimiy muloqot qilib, pedagoglarga davlat mukofotlarini shaxsan o‘zi topshirdi.

Ushbu tadbirda davlatimiz rahbari ta’lim sifatini oshirish maqsadida yetti yo‘nalishda aniq vazifalarni belgilab berdi. Bu vazifalar pedagoglar malakasini va moddiy manfaatdorligini oshirish, yangi bog‘cha va maktablar qurish, sohani to‘liq raqamlashtirish, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan o‘quv muassasalari tajribasini ommalashtirish, iqtidorli yoshlarni saralash, o‘quvchilar tarbiyasi va odob-axloqiga har qachongidan ko‘ra ko‘proq e’tibor qaratish kabi dolzarb masalalarni qamrab olgan.

Shuningdek, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy ta’lim va malaka oshirish tizimi uzviyligini ta’minlab, pedagogik ta’lim klasterlari tashkil etish muhimligi ham ta’kidlandi. “Yil o‘qituvchisi” tanlovi o‘tkazilib, 208 ta tuman va shahardan g‘olib bo‘lgan o‘qituvchilarga Prezident sovg‘asi sifatida uy-joy berilishi e’lon qilindi.

Davomi 2-betda

Islohotlar samarasi

IJTIMOIY HIMOYA – INSONGA E’TIBORNING OLIY NAMUNASI

Aholini ijtimoiy himoya qilish, insonga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish mamlakatimiz taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishiga aylangani yangi O‘zbekistonni insonparvar va ijtimoiy davlat sifatida dunyoga olib chiqdi. Bu ijtimoiy himoya sohasiga mamlakat byudjetidan ajratiladigan mablag‘ miqdorini oshirish va qo‘shimcha resurslarni jalb qilish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etish yo‘nalishidagi izchil islohotlarning amaliy natijasini yaqqol ifodalaydi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlar bugun ijtimoiy himoya sohasida har bir muhtoj inson bahramand bo‘la oladigan hayotiy poydevor yaratdi. Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta’minlash, davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishda samarali mexanizmlar ishga tushdi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
IJTIMOIY HIMOYA MILLIY AGENTLIGI

Davomi 5-betda

HUDUDLARNI OBOD QILAYOTGAN HARAKAT

Bugun dunyo ekologik inqiroz yoqasida turibdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Insoniyatning ona tabiatga shafqatsizlarcha munosabati tabiiy tizimning izdan chiqishiga zamin yaratdi. Mamlakatlar xalqaro anjumanlarda ekologik inqirozlarni bartaraf etish chorasini izlamoqda. Shu bois, O‘zbekiston ham bugun iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatishga jadal kirishgan.

“Yashil qalqon”lar ko‘paysin

Aslida, bugun biz yuzlashayotgan muammolar salkam 130 yil avval dunyo olimlari tomonidan bashorat qilingan. Har kuni atmosferaga ko‘tarilayotgan karbonat angidrid konsentratsiyasi ko‘lami oshib borayotgani inson omili bilan bog‘liq. Issiqxona gazlari tarqalishi to‘xtatilmasa, sayyoraning o‘rtacha harorati keskin oshishi, bu esa quruqlikning katta qismini yaroqsiz holga keltirib qo‘yishi mumkin. Kelajakda mana shunday xatarlarning oldini olish uchun ham hozirdanoq jiddiy sa’y-harakatlar talab etiladi.

Mamlakatimizda ekologik toza va samarali texnologiyalarni joriy etish, resurslarni iqtisod qilish, uglerod ekspluatatsiyasini kamaytirish ustuvor vazifaga aylangan. 2025-yilga Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili deya nom berilgani bu yo‘nalishda qilinadigan ishlar salmoqli ekanini ko‘rsatib turibdi.

Davomi 4-betda

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

JASORAT MAKTABLARI

Har birimiz sadoqatli bo‘lishimiz, yoshlarni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur

Mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik, yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ular ongiga tinchlikdek oliy ne’matning qadrini singdirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, yurt kelajagi bilimli, shijoatli, qat’iy, maqsadni aniq qo‘yib, shu asosda harakat qilayotgan yoshlar qo‘lida. Shu ma’noda, kelajak egalarining barkamol bo‘lib voyaga yetishi, ilmu fan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta egallashi, davr talablari asosida ta’lim va tarbiya olishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishi uchun yetarlicha sharoit muhayyo etilyapti.

Davomi 2-betda

Taraqqiyot odimlari

TA’LIM TIZIMIDAGI BUGUNGI ISLOHOTLAR

MAMLAKAT RAVNAQIGA XIZMAT QILADI

Hilola UMAROVA,
maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz alohida qayd etgan vazifalar ijrosiga darhol kirishilgani dastlabki samarasini bera boshladi. Xususan, Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda uning hududiy markazlari faoliyati tubdan o‘zgardi. Vazirlik — malaka oshirish markazi — maktab va bog‘chani bog‘laydigan vertikal tizim yo‘lga qo‘yildi. Hududlarda tayanch maktab va bog‘chalar tanlab olinib, yosh pedagoglar uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” joriy etildi. Buning uchun yetakchi o‘qituvchilarning ish haqiga 20 foiz ustama qo‘shildi.

Pedagoglar bilimi va mahoratini xolis baholash hamda ularni malaka oshirishga yo‘naltirish maqsadida vazirligimiz tomonidan birinchi marta Blockchain texnologiyasi hamda Face ID tizimi asosida malaka (test) sinovi o‘tkazildi. Bu orqali har bir pedagog yechgan test vaqti, to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblari haqidagi ma’lumotlarni o‘zgarmas shaklda saqlash imkoniyati yaratildi hamda turli korrupsion omillarning oldi olindi. Ushbu yangiliklar attestatsiya jarayonining shaffof va adolatli o‘tishini ta’minladi. Bahor va kuzda o‘tkazilgan attestatsiya jarayonida 338 mingdan ortiq pedagog ishtirok etdi.

Har ikki attestatsiyada qatnashgan 35 ming pedagog ijobiy natijaga erishdi, ya’ni toifasi oshdi. Avvallari pedagoglarning oliy toifa olishi uchun o‘n yillab vaqt kerak bo‘lgan. Hozir o‘qituvchilar bir yilning o‘zida toifasini ikki marta oshirishi mumkin. Maktabga mutaxassis sifatida qabul qilingan pedagog o‘z ustida ishlasa, faoliyatining ikkinchi yilidayoq oliy toifaga ega bo‘lishi mumkin. Bu ham muallimlar uchun o‘tgan yildagi yaxshi yangiliklardan, aniqrog‘i, imkoniyatlardan biridir.

O‘qitish tizimida baho o‘quvchilarning ta’limiy maqsadlarga erishish darajasini aniqlash hamda natijalarni tahlil qilish imkonini beradi. Natijalar va tahlil obyektiv bo‘lishi uchun baholash ham ishonchli, adolatli, xolis bo‘lishi zarur. Shu sababli hozir 1500 ta umumta’lim maktabida an’anaviy 5 ballik tizim o‘rniga aniq mezonlarga asoslangan summativ baholash tizimi qo‘llanmoqda. Bunga qadar Buyuk Britaniya, Singapur, Finlyandiya, Turkiya, Rossiya, Qozog‘iston kabi davlatlarning mazkur yo‘nalishdagi tajribasi o‘rganilib, dastlab 500 ta maktabda yangi tizim sinovdan o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, Prezident ta’lim muassasalari va ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga

o‘rgatish bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajribani umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga keng tatbiq etish belgilangan. Yangi baholash tizimining umumta’lim maktablariga joriy etilishi o‘quvchilarda kreativ va tanqidiy fikrlash, muammoni ko‘ra olish, yechim topish, jamoada ishlash, kommunikativ bo‘lish, global fikrlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Tahlillarga ko‘ra, yangi baholash tizimi o‘quvchilarning o‘zlashtirishi yaxshilanishiga xizmat qilyapti. Masalan, 2023/2024-o‘quv yilida yangi baholash tizimi joriy qilingan 500 ta umumta’lim maktabida 4 ta fan bo‘yicha birinchi chorak natijalari tahlil qilindi hamda bu o‘quv yilidagi ko‘rsatkichlar bilan solishtirildi. O‘tgan o‘quv yili natijalariga ko‘ra o‘quvchilarimiz o‘zlashtirishi o‘rtacha 49,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu o‘quv yilida 55,3 foizga yetgan. Solishtirma tahlil natijalari 6,1 foiz o‘sishni ko‘rsatyapti.

Yangi baholash tizimiga o‘tish nafaqat ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatadi, balki o‘qituvchilarimizning oylik maoshiga qo‘shimcha ustama berilishiga ham asos bo‘ladi. O‘tgan yili ijobiy natija ko‘rsatgan 66 ta maktab jamoasiga — direktordan oddiy o‘qituvchigacha 40 foizgacha ustama to‘lanmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ta’lim tashkilotlariga har yili “til egasi” bo‘lgan xorijlik 500 mutaxassisni olib kelish vazifasi belgilangan. Bunday amaliyotdan aksariyat davlatlar faol foydalanadi. Masalan, birgina Buyuk Britaniya ta’lim sifatini oshirish uchun 2023-yilda 100 mingdan ortiq xorijlik o‘qituvchini jalb qilgan. Xuddi shunday tajriba Xitoyda ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, har yili 400 minggacha chet tili o‘qituvchisi olib kelinadi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, bizda ham mazkur loyiha doirasida belgilangan ishlar izchil davom ettirilyapti. Bunda, avvalo, xorijiy til o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablarimizni belgilab oldik. So‘ng xalqaro TESOL (Teaching English for Speakers of Other Languages) tashkiloti bilan maslahatlashdik, tahlil qildik, o‘rgandik. Nufuzli rekruting kompaniyalari, ta’lim tashkilotlari bilan muzokaralar o‘tkazib, elchixonalar bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatdik. Yakunda xalqaro sertifikatga va katta tajribaga ega 500 nafar xorijiy til o‘qituvchisini yurtimizga olib keldik. Natijada ular faoliyat yuritayotgan 500 ta maktab o‘quvchilarining til bilish darajasi hududlar bo‘yicha o‘rtacha 5 foizdan 15 foizgacha oshgan.

“Til egalari” bir haftada 20 soatlik dars bilan birga uch marta qo‘shimcha to‘garak

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

mashg‘ulotlari o‘tadi hamda mahalliy o‘qituvchilarimiz uchun treninglar tashkil etadi. Yana bir muhim jihat shuki, dars mahalliy pedagog bilan birga o‘tiladi, ya’ni ular hamkor o‘qituvchi sifatida bir-birining o‘rnini to‘ldiradi. Buning foydali jihatlari ko‘p. Bir tomondan, xorijlik mutaxassis bilimini ham o‘quvchi, ham o‘qituvchiga ulashadi. Ikkinchi tomondan, o‘qitish tizimimiz bilan yaqindan tanishib boradi. Odatda o‘quvchilarimiz IELTS sinovining tinglab tushunish yoki o‘qib tushunish qismi bo‘yicha yuqori ball oladi. Ammo yozish va gapirish ko‘nikmasiga kelganda, ochig‘ini aytish kerak, ballari pasayib ketadi. Demak, produktiv qism uchun o‘quvchilarimizga qo‘shimcha yordam kerak. Shuning uchun xorijlik mutaxassislar bilan, asosan, til muhitini vujudga keltirish, ya’ni oson muloqot qilish, tushunish, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish juda muhim.

Har bir tuman (shahar)da bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘quvchilarga ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunar o‘rgatish amaliyotini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish uchun 2023/2024-o‘quv yilida qator ishlar bajarildi. Jumladan, ikkinchi xorijiy til sifatida tanlangan ingliz, nemis, fransuz, koreys, yapon va xitoy tillari bo‘yicha o‘quv dasturlari ishlab chiqildi. O‘tgan o‘quv yilida jami 208 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida ikkita chet tilini o‘qitish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Joriy o‘quv yilida bunday maktablar soni 354 taga yetkazildi.

O‘tgan yillarda xorijiy tilni bilish darajasi sezilarli o‘sdi. Xususan, til bilish sertifikatiga ega o‘quvchilar soni 2024-yilda 37 ming 74 nafarni (avgust holatiga ko‘ra) tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2021-yilga (10 ming 960 nafar) nisbatan 3,3 karra oshgan. Xuddi shunday sertifikatga ega xorijiy til o‘qituvchilari soni 30 ming 69 nafarni tashkil etib, umumiy hisobda 60 foizga yetdi.

O‘tgan yili maktabgacha va maktab ta’limi tizimi bilan bevosita bog‘liq 2 ta qonun, 4 ta farmon, 9 ta qaror va 18 ta hukumat hujjati imzolanib, ijroga yo‘naltirildi. Ayniqsa, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun o‘qituvchilarga yuksak ehtiromning mustahkam huquqiy asosi bo‘ldi. Unda pedagoglarni o‘z lavozim majburiyatidan boshqa ishlarga jalb qilish qat’iy taqiqlandi.

Maktablardagi muhit, avvalo, direktorlarning salohiyatiga bog‘liq. Shuning uchun direktorlarni lavozimga tayinlashning yangi shaffof tizimi yo‘lga qo‘yildi. Hududlarda bu ishga mas’ul direktorlar kengashi faoliyat boshladi. Direktorlarga menejerlik sertifikati berish tizimi joriy etilib, tegishli tartibda o‘qitilgan 2561 direktor va direktorlikka nomzodning 1766 nafari sertifikatga ega bo‘ldi.

2024-yilda 4600 ta yangi bog‘cha tashkil etilib, qo‘shimcha 170 mingdan ortiq bola o‘rni ochildi hamda bolalarni maktabgacha ta’limga qamrov darajasi 76 foizga yetkazildi. Islohotlar boshlangan 2017-yilda bu ko‘rsatkich atigi 27 foiz edi. O‘g‘il-qizlarni maktabga tayyorlov guruhlariga qamrab olish darajasi 96 foizdan ortdi.

O‘zbekiston tarixida ilk bor xalqaro fan olimpiadalarida o‘quvchilarimiz 128 ta medalni qo‘lga kiritdi. G‘oliblar uchun birinchi marta katta tantanali taqdirlash marosimi o‘tkazilib, o‘g‘il-qizlar 1,4 milliard, ustozlari esa 1,9 milliard so‘m bilan rag‘batlantirildi. Shuningdek, mamlakatimizda Al-Xorazmiy nomidagi yosh matematiklar bellashuvi hamda Abu Ali ibn Sino nomidagi xalqaro biologiya olimpiadasi tashkil etildi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning tegishli qarori bilan Fan olimpiadalari markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu markazda o‘quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlovchi trener-o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratiladi, ularga yangi metodikalar o‘rgatib boriladi. Qobiliyatli hamda fanlarni chuqur o‘rganishga qiziqadigan yoshlarni aniqlash va seleksiya qilish, ulardagi iqtidorni yanada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish markazning asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi.

Boshlangan yangi yilda bir qancha vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash uchun jamoamiz bilan aniq rejalar tuzib olganmiz. Xususan, 2025-yilda maktab direktorlari va o‘rinbosarlarining ish haqi miqdori bosqichma-bosqich (KPI asosida) oshiriladi. Qolaversa, bog‘cha direktorlarining oylik maoshi oshirilishi ham ko‘zda tutilyapti. Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi boshqaruv xodimlarining lavozim maoshiga uzoq muddat ishlagani uchun har oylik ustama qo‘shiladi. Ushbu yangiliklar natijasida sohaga yuksak tajribali boshqaruv kadrlari jalb qilinadi hamda islohotlar eng quyi tizimgacha sifatli joriy etilishiga erishiladi.

Bahorda 250 ta maktabda o‘tkaziladigan PISA — 2025 xalqaro tadqiqotida 10 mingdan ortiq o‘quvchi ishtirok etadi. Ikkinchi xorijiy til o‘qitiladigan maktablar soni 420 taga, kasb-hunar o‘rgatiladigan maktablar soni 400 taga yetkaziladi. 4 ta hududda yangi ixtisoslashtirilgan maktab, 9 ta hududda Al-Xorazmiy nomidagi maktab faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Maktablarda “Iqtidor”, Turon” “Jadidlar izidan” tanlovlari bo‘lib o‘tadi. Shuningdek, inklyuziv ta’limga jalb etilgan bolalar uchun “Sen iqtidorlisan” respublika tanlovi o‘tkaziladi. “Barkamol avlod” bolalar maktablarining tarmoq to‘garaklariga o‘quvchi qamrovi 5 foizdan 26 foizga oshirilib, ularga kambag‘al oila farzandlari jalb qilinadi. “Yashil maktabim” o‘quvchilar ekologik harakati doirasida 2530 ta maktabda yashil bog‘ barpo etiladi.

Donishmandlar “Agar bir yil farovon yashashni istasangiz, bug‘doy eking. O‘n yillik to‘kinlik tilasangiz, daraxt o‘tqazing. Yuz yillik taraqqiyotni ko‘zlayotgan bo‘lsangiz, farzandlaringizga ta’lim-tarbiya bering”, deya uqtirgan. Shu ma’noda, bugun yangi O‘zbekiston ta’lim tizimidagi ishlar yuz yillar davomida samara berishiga ishonamiz.

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

JASORAT MAKTABLARI

Har birimiz sadoqatli bo‘lishimiz, yoshlarni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur

Boshlanishi 1-betda

Mazkur yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, globallashuv sharoitida inson ongi va qalbini zabt etish uchun kurashlar keskin tus olayotgan bir davrda xalqaro maydonda yoshlarni turli xavf va tahdidlardan asrash, ularning mustaqil fikri, e’tiqodini va qat’iy hayotiy pozitsiyasini shakllantirish eng muhim va kechiktirib bo‘lmas vazifalardan sanaladi.

Darhaqiqat, vatanparvarlik yoshlarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas’uliyat hissi, el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini, faol hayotiy pozitsiya va qat’iy e’tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Bundan unumli foydalangan holda yoshlarimizda yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ona-yurt taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlash, ularni o‘z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rishni taqozo qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 15-noyabrdagi “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ular ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, barcha yo‘nalishlarda bilim va ko‘nikmalarini oshirish, shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha belgilangan keng ko‘lamli vazifalarni samarali amalga oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Endilikda 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik (CHQBT) fani bo‘yicha o‘quv fani va darsliklari mutlaqo yangicha format va uslubda yaratiladi.

Asosiysi, darslarning amaliyot bilan bog‘liqligini ta’minlash uchun o‘quv yili mobaynida ikki marta harbiy poligonlarda, har chorakda bir marta harbiy qismlarda amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi.

Bundan tashqari, respublikadagi har bir tuman va shaharda bitta umumiy o‘rta ta’lim maktabi negizida bolalarni kichik yoshidan Vatanga cheksiz sadoqat ruhida, jismonan sog‘lom va ma’naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalashga yo‘naltirilgan “Jasorat maktablari” tashkil etiladi. Ularni a’lo baholarda tugatgan “Vatan tayanchi” otryadining a’zosi bo‘lgan bir nafar o‘quvchiga Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadigan tanlab olish tartibiga muvofiq oliy harbiy va harbiylashtirilgan hamda yuridik ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma beriladi.

— Jasorat maktablari umumta’lim maktablari uchun harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishida tayanch maktab etib belgilandi, — deydi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Jamshid Nabiyev. — Ularda matematika, CHQBT, tarix, jismoniy tarbiya, chet tili, fizika fanlari chuqurlashtirilgan holda o‘qitiladi. O‘qish uchun o‘quvchilar beshinchi sinfdan boshlab saralanadi.

Shuningdek, “Jasorat maktablari”ga biriktirilgan CHQBT rahbarlariga ta’lim tashkiloti o‘qituvchisining bazaviy tarif stavkasi bilan birga tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limlari fuqaro xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash, ustama haq, qo‘shimcha to‘lov, rag‘batlantirish va moddiy yordamlar ham ko‘rsatiladi.

Ular zimmasiga o‘quvchilarda xalqimizning

ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlari, madaniyati va urf-odatlariga chuqur hurmatni, halollik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik singari sifatlarni, shuningdek, milliy g‘ urur tuyg‘ularini shakllantirish vazifasi yuklatildi.

Ta’lim tashkilotlarida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yurtimiz tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimiz, eng avvalo, sohibqiron Amir Temurning bebaho merosi, Vatanimiz ozodligi, el-yurt tinchligi yo‘lida mardlik va jasorat ko‘rsatgan vatandoshlarimizning qahramonligi asosida xalqimizga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni tarbiyalashni yo‘lga qo‘yish asosiy yo‘nalishlar etib belgilandi.

— Shu bilan birga, maktablardagi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash fani o‘qituvchiligiga sohada katta hayotiy, xizmat tajribasiga ega va aynan mana shu fan yo‘nalishida uzoq yillar pedagogik faoliyat yuritgan ustozlar jalb etiladi, — deydi Mudofaa

> **TA’LIM TASHKILOTLARIDA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA YURTIMIZ TARIXI VA BOY MADANIYATI, BUYUK AJDODLARIMIZ, ENG AVVALO, SOHIBQIRON AMIR TEMURNING BEBAHO MEROSI, VATANIMIZ OZODLIGI, EL-YURT TINCHLIGI YO‘LIDA MARDLIK VA JASORAT KO‘RSATGAN VATANDOSHLARIMIZNING QAHRAMONLIGI ASOSIDA XALQIMIZGA SODIQ, QAT’IY HAYOTIY QARASHLAR VA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASIGA EGA YOSHLARNI TARBIYALASHNI YO‘LGA QO‘YISH ASOSIY YO‘NALISHLAR ETIB BELGILANDI.**

vazirligi “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati rahbari, polkovnik Bahrom Zulfiqorov. — Oliy ta’lim tashkilotlari harbiy ta’lim fakultetlarining “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishi bitiruvchilari, Qurolli Kuchlarning rezervidagi oliy ma’lumotga ega oddiy askar, serjant, shuningdek, ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar orasidan ham tanlab olinadi.

Ularni rag‘batlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda xizmatiga mas’uliyatini oshirish maqsadida Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabrdagi farmonida belgilangan tartibda bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida bir martalik boshlang‘ich yordam puli va uy-joylarni ijaraga olganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik pulli kompensatsiya to‘lanadi.

Bu yo‘nalishda kadrlar tayyorlash masalasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi zimmasiga ham alohida mas’uliyat yuklaydi. Ayni maqsadda 2026-2027-o‘quv yilidan boshlab Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg‘ona davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika institutining “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” yo‘nalishiga qo‘shimcha qabul kvotalari ajratiladi.

Qarorga binoan, maktablardagi chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi shtati Mudofaa vazirligiga o‘tkazilib, CHQBT rahbari lavozimi joriy etiladi. Mudofaa vazirligi markaziy apparati tarkibida Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash departamenti, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida esa Vatanparvarlik va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish bo‘limlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Yoshlarni vatanparvarlik, fidoyilik, insonparvarlik kabi g‘oyalar asosida tarbiyalovchi badiiy asarlar barcha foydalanuvchilar uchun qulay bo‘lgan onlayn platformalarga joylashtiriladi. Har oyda ikki marotaba o‘quvchi va talabalar uchun ma’naviy ibrat timsoli bo‘lib xizmat qiladigan tarixiy va zamonaviy qahramonlar obrazlari, mamlakatimiz tarixi aks ettirilgan asarlarni namoyish qilish hamda ijodiy-ma’rifiy kechalar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongiga yurtga daxldorlik, Vatanga sadoqat, vatanparvarlik tuyg‘ularini chuqur singdirish, bir yoqadan bosh chiqarib, hamjihatlik, yagona maqsad va maslak yo‘lida xizmat qilish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Adolat va qonun ustuvor

YANGI O‘ZBEKISTON G‘OYASI HAYOTIY VOQELIKKA AYLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi talablariga muvofiq hamda BMTning ustav organlari va shartnoma qo‘mitalari tavsiyalarini hisobga olgan holda inson huquq va erkinliklarini, xususan, bolalar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha muhim tadbirlar amalga oshirildi.

— O‘tgan yili ayni shu yo‘nalishda qanday qonunchilik hujjatlari qabul qilindi?

— Bu haqda fikr yuritganda, avvalo, O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”dagi chora-tadbirlarning bajarilishi milliy markaz tomonidan har chorakda monitoring qilib borilayotganini qayd etish lozim. O‘tgan davrda “yo‘l xaritasi” 88 foiz ijro etilgan.

2024-yilda Milliy strategiya doirasida **13 ta** qonun, Prezidentimizning **15 ta** farmoni va qarori, Vazirlar Mahkamasining **8 ta** qarori qabul qilindi hamda ijroga yo‘naltirildi.

Xususan, o‘tgan yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risidagi, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risidagi, Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risidagi, Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risidagi, Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqidagi qonunlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun bilan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo‘ravonlikdan tashqari uning yangi shakllari — g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling kabilar bolaga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasi doirasiga kiritildi.

Davlat bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun tegishli huquqiy, ma’muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni ko‘rishi, zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilishi va huquqlarini tiklashi hamda ijtimoiy moslashtirish uchun zarur bo‘lgan samarali choralar ko‘rishi belgilandi. Shu bilan birga, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi va Jinoyat kodekslarining tegishli moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik qilganlik uchun javobgarlik belgilandi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon, “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining “Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ham kuchga kirdi.

Mamlakatimizda 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi faol amalga oshirilmoqda. Gender tenglik va ayollar huquqlarini ta’minlash ishlari kuchaytirilib, O‘zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga yetkazildi. Yangi saylangan Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat a’zolarining 25 foizini ayollar tashkil etmoqda. Tadbirkor ayollar safi ikki barobar ko‘payib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan ayollar soni 205 mingdan oshdi. Jahon banki indeksida O‘zbekiston gender tenglik sohasida eng tez rivojlanayotgan 5 mamlakat qatorida qayd etildi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, to‘laqonli hayot kechirishini ta’minlash uchun mutlaqo yangi tizimga asos solindi. Bunday shaxslarning odil sudlovdan foydalanish, saylash va saylanish, referendumda ishtirok etish, shuningdek, ta’lim olish huquqlarini ta’minlash uchun qo‘shimcha shart-sharoit yaratildi.

O‘zbekiston parlamenti 2024-yilning o‘zida Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to‘g‘risidagi, To‘liqsiz ish vaqti sharoitlarida ishlash to‘g‘risidagi, Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to‘g‘risidagi, Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi hamda ishlab chiqarish muhiti to‘g‘risidagi konvensiyalarini ratifikatsiya qildi.

— O‘tgan yilda yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar samarasi tufayli mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirishga hissa qo‘shgan eng muhim omillarga ham muxtasar to‘xtalib o‘tsangiz.

— **Birinchidan,** 2024-yil 4-iyunda BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tashabbusi asosida “Markaziy Osiyo davlatlarining giyohvandlik bilan bog‘liq muammolarni samarali hal etish va bartaraf etish uchun yagona front bo‘lib harakat qilish va hamkorlik qilishga tayyorligi to‘g‘risida”gi rezolyutsiyani bir ovozdan qabul qildi. Rezolyutsiyada Markaziy Osiyoda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mintaqadagi giyohvandlik moddalari savdosi va giyohvandlikka qarshi kurashish bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlangan. BMT rasmiy hujjatida O‘zbekistonning yangi siyosati natijasida mintaqada yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, o‘tgan yil 7-iyunda Jenevada bo‘lib o‘tgan Xalqaro mehnat konferensiyasining 112-sessiyasida O‘zbekiston ilk marotaba Yevropa hududidan eng ko‘p ovoz to‘pladi va Xalqaro mehnat tashkiloti ma’muriy kengashi a’zoligiga saylandi. Bu yutuq O‘zbekistonning global mehnat siyosatida, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarda, mehnat munosabatlari tizimini takomillashtirish yuzasidan yangi taklif va g‘oyalar ishlab chiqilishida bevosita faol ishtirok etishiga qulay imkoniyat yaratdi.

Uchinchidan, 2024-yil iyunda BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida O‘zbekiston va Xitoy tomonidan “Xalqaro sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot kuni”ni belgilash bo‘yicha taklif qilingan rezolyutsiya bir ovozdan ma’qullandi. Ushbu rezolyutsiyada O‘zbekiston rahbariyatining umumiy xavfsizlik va farovonlikni ta’minlash uchun hamjihatlik ruhini rivojlantirish, amaliy hamkorlikka intilish, tinchlik va barqaror farovonlikka erishish yo‘lida xalqaro hamjamiyat sa’y-harakatlarini safarbar etishga qaratilgan g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

To‘rtinchidan, o‘tgan yil iyunda 2025-2027-yillar uchun BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi a’zoligiga o‘tkazilgan saylovda O‘zbekiston 185 mamlakat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, EKOSOSga saylandi. Mamlakatimiz o‘z tarixida ilk bor ushbu tuzilmaga a’zo bo‘ldi.

Beshinchidan, 2024-yil 13-avgustda O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi bir ovozdan “Degradatsiyaga uchragan va qurg‘oq hududlarda barqaror o‘rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni targ‘ib qilish — ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi” rezolyutsiyasini qabul qildi. Mazkur rezolyutsiya O‘zbekistonning shahar va qishloq hududlarini ko‘kalamzorlashtirish orqali bioxilma-xillikni saqlash va tiklashga qaratilgan “Yashil makon” milliy dasturi konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Rezolyutsiyada o‘rmonlarni barqaror boshqarish va daraxt o‘tqazishning biologik xilma-xillikni oshirish, iqlim o‘zgarishi va havo ifloslanishi oqibatlarini yumshatish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, jumladan, kambag‘allikka barham berish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasidagi hissasi alohida ta’kidlangan.

BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi bugun BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasi, Kioto protokoli va Parij bitimi qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha muzokaralar jarayonining oliy organidir.

O‘tgan yil 11-22-noyabr kunlari Ozarbayjonda tashkil etilgan COP29 konferensiyasi doirasida Iqlim o‘zgarishi sharoitida bolalarning sog‘liqqa bo‘lgan huquqlarini ta’minlash mavzusida parallel tadbir bo‘lib o‘tdi. Ushbu forum Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan Butunjahon bola huquqlari kuni va BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi qabul qilinganining 35 yilligi munosabati bilan o‘tkazildi.

> **“Markazimiz BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan davriy ma’ruzalarni, milliy harakat rejalari loyihalarini tayyorlash, O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalari bajarilishi holatini joylarga chiqib o‘rganishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan birga ishlamoqda.”**

Mamlakatimizda 2025-yil — **Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot yili** deb e’lon qilindi. Shu muhim omil ham O‘zbekiston Prezidenti ilgari surayotgan va izchillik bilan amalga oshirilayotgan milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslar o‘rtasidagi uzviy hamda mantiqiy bog‘liqlikni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

— BMT Inson huquqlari kengashi Uy-joy huquqi bo‘yicha maxsus ma’ruzachisining yurtimizga tashrifi o‘tgan yilning muhim voqealari sirasiga kiradi. Shunday emasmi?

— O‘zbekiston taklifi bilan **BMT Inson huquqlari kengashining Uy-joy huquqi bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi Balakrishnan Rajagopal** 2024-yil 19-30-avgust kunlari O‘zbekistonda bo‘ldi. U mamlakat parlamenti, sudlari va hukumati a’zolari bilan uchrashdi.

Janob B.Rajagopal O‘zbekistonda so‘nggi yillarda uylarni o‘zboshimchalik bilan olib qo‘yish va buzishdan huquqiy himoyani yaxshilash, shuningdek, shaharsozlikda ishtirok etishni ta’minlashga qaratilgan bir qancha yangi qonunlar, ayniqsa, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganini olqishladi.

Bu bejiz emas. Chunki yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga esa uy-joyning qiymati hamda u ko‘rgan zarar o‘rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta’minlanishini belgilovchi norma nazarda tutilgan.

O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari va inson huquqlari bo‘yicha maxsus ma’ruzachilari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Milliy markazga 2024-yilda BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi maxsus ma’ruzachilari ko‘targan masalalar va yakka tartibdagi murojaatlar bo‘yicha 20 ta hujjat kelib tushdi. Mazkur masalalar yuzasidan tegishli ma’lumotnoma tayyorlanib, maxsus ma’ruzachilarga taqdim etildi.

O‘tgan yili inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha BMTning ustav va shartnomaviy organlari hamda boshqa mexanizmlarining tavsiyalarini amalga oshirish maqsadida 6 ta milliy harakatlar rejasi ijrosi monitoring qilindi.

Milliy markaz 2024-yilda xalqaro tashkilotlarning hamda hamkor xorijiy davlatlarning inson huquqlari to‘g‘risidagi hisobotlarida taqdim etilgan ma’lumotlarga sharhlar tayyorlashni ham davom ettirdi. Xususan, AQSH Davlat departamentining “2023-yil uchun Inson huquqlari bo‘yicha hisoboti” va “Human Rights Watch” xalqaro nohukumat tashkilotining 2023-yil uchun hisoboti bo‘yicha sharhlar tayyorlandi.

— Inson huquqlari masalalari bo‘yicha xalqaro hamkorlikning yana qaysi jihatlariga to‘xtalishni istardingiz?

— 2024-yil 13-14-iyun kunlari Samarqandda **“Ekologik muammolar: o‘zgaruvchan dunyoda inson huquqlari kelajagi va barqaror yechimlar topish” mavzusida Inson huquqlari bo‘yicha IV Samarqand forumi bo‘lib o‘tgan**ini ta’kidlash o‘rinli. Forum BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissarining Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy byurosi, BMTning O‘zbekistondagi jamoasi, BMTning Taraqqiyot dasturi, YEXHTning O‘zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi, F.Ebert va K.Adenauer jamg‘armalari ko‘magida tashkil etildi.

Anjumanda **200** dan ortiq xalqaro, mintaqaviy, xorijiy va milliy tashkilot vakillari, mustaqil ekspertlar oflayn hamda onlayn formatda ishtirok etdi. Forum yakunida **“Iqlim o‘zgarishlari sharoitida inson huquqlarini global himoya qilish: barqaror kelajak yo‘lidagi majburiyatlar va sa’y-harakatlar to‘g‘risidagi Samarqand deklaratsiyasi”** qabul qilindi.

O‘tgan yilda Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi va Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) o‘rtasidagi hamkorlik doirasida **7 ta tadbir** tashkil etildi. Yevropa kengashi hamkorlik dasturlari boshqarmasining Markaziy Osiyo uchun “Qonun ustuvorligi” bo‘yicha HELP dasturi doirasida esa nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlariga bag‘ishlangan o‘quv seminari o‘tkazildi.

Shuningdek, milliy markaz vakillari **Varshava, Jeneva, Moskva, Sankt-Peterburg, Bangkok, Nyu-York, Boku, Parij, Doxa, Strasburg, Jidda, Ar-Riyod, Pekin, Ostona shaharlarida inson huquqlari mavzusiga bag‘ishlab o‘tkazilgan turli forumlar**da qatnashdi.

— Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz ijrosini ta’minlash bo‘yicha inson huquqlariga oid qonun ijodkorligi faoliyati haqidagi fikrlaringizni ham bildirib o‘tsangiz.

— O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga izchil tatbiq etilmoqda. 2024-yilda 69 ta normativ-huquqiy hujjat ekspertizadan o‘tkazildi.

Milliy markaz tomonidan 9 ta kodeksni takomillashtirish, shuningdek, 20 dan ortiq qonun loyihasi ekspertizadan o‘tkazilib, ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar bildirildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga taklif va tavsiyalar tayyorlandi hamda tegishli tartibda taqdim etildi. Shuningdek, qator normativ-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqildi.

— O‘tgan yilda inson huquqlari sohasida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qanday ahamiyat kasb etdi?

— Milliy markaz 2024-yilda davlat organlari bilan xalqaro tashkilotlarning inson huquqlari bo‘yicha tavsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha tasdiqlangan 6 ta milliy harakatlar rejasi hamda Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyani amalga oshirish borasida yaqin hamkorlikda ishladi. Yil davomida birgalikda **10 ga** yaqin tadbir tashkil etildi.

Shuningdek, O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini bajarish, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan milliy ma’ruzalar, milliy harakatlar rejalarini tayyorlash, ularning ijrosini monitoring qilish, joylarga chiqib o‘rganish, inson huquqlarini tiklash borasida fuqarolar murojaati bilan ishlash yuzasidan tuzilgan ishchi guruhlar faoliyati bevosita mas’ul davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirildi.

Milliy markaz manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish yuzasidan takliflarni, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorladi. Qonunchilik hujjatlarini inson huquqlarini ta’minlashga muvofiqlik nuqtayi nazaridan ekspertizadan o‘tkazdi.

Markazimiz BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan davriy ma’ruzalarni, milliy harakat rejalari loyihalarini tayyorlash, O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalari bajarilishi holatini joylarga chiqib o‘rganishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan birga ishlamoqda.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati vakillari bilan BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari tavsiyalari amalga oshirilishini monitoring qilish jarayonida ham faol ishtirok etyapmiz. Xususan, 2024-yilda BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi normalari amalga oshirilishi bo‘yicha **2 ta**, BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt normalari amalga oshirilishi bo‘yicha **1 ta**, “Inson huquqlari”, “Ayollar huquqlari” va “Bola huquqlari” o‘quv kurslarini o‘qitish sifati bo‘yicha **4 ta** hamda jazoni ijro etish muassasalarida inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo‘yicha **1 ta** monitoring o‘tkazildi.

BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalari O‘zbekistonning inson huquqlari bo‘yicha davriy ma’ruzalarini tayyorlashda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokida fuqarolik jamiyati institutlari muqobil ma’ruzalari tayyorlanishini olqishlaydi. Chunki bu inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarning bajarilishiga doir ma’lumotlarning ishonchlilik darajasini oshiradi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat hayotidagi o‘rni ortib borayotganidan dalolat beradi.

— Jamiyatda huquqiy ma’rifat va inson huquqlari bo‘yicha madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarga aniq misollar asosida to‘xtalib o‘tsangiz.

— Milliy markaz 2020-2024-yillarda inson huquqlari sohasida ta’lim berish orqali yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan Inson huquqlari sohasidagi jahon ta’lim dasturining to‘rtinchi bosqichini, BMTning Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirishda faol qatnashdi. Shu munosabat bilan 2024-yilda **20 dan** ortiq malaka oshirish kursi, **50** dan ziyod seminar-trening, **2 ta forum, 5 ta** konferensiya hamda **80 dan** ortiq axborot-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.

Yil davomida 45 ta xalqaro hujjat davlat tiliga tarjima qilindi va qayta tahrir etilib, **4 ta** to‘plam holida nashr etildi. Bu o‘rinda **“BMTning jinoyatchilikka qarshi kurashish va odil sudlovga oid xalqaro shartnomalari”, “Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy shartnomalari”, “1949-yil 12-avgustdagi Jeneva konvensiyalari va ularga qo‘shimcha protokollar”, “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya *(o‘zbek, qoraqalpoq, ingliz va rus tilida)”* nomli to‘plamlar** haqida so‘z bormoqda.

Yana bir muhim natija: 2024-yil 3-dekabrda Toshkentda Inson huquqlari uyining rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. “Inson huquqlari uyi” nomi ostida inson huquqlari bo‘yicha xalqaro va milliy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, sharhlar va tahliliy hisobotlarning zamonaviy kutubxonasi shakllantirildi va rivojlantirilmoqda.

Shunday qilib, 2024-yilda geosiyosiy qarama-qarshilik, harbiy mojarolar avj olishining salbiy oqibatlari va iqlim o‘zgarishi tahdidlariga qaramay, O‘zbekistonda inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini mustahkamlash hamda institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Binobarin, ayni soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

G‘ulom MIRZO suhbatlashdi.

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

HUDUDLARNI OBOD QILAYOTGAN HARAKAT

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston 2030-yilgacha issiqxona gazi chiqarilishini 35 foiz kamaytirishni, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya ulushini kamida 25 foiz yetkazishni rejalashtirgan. Davlatimiz global cho‘llanishga qarshi ta’sirchan islohotlar yo‘lidan borar ekan, mavjud muammolarni bosqichma-bosqich hal etish choralarini belgilab qo‘ygan. 2017-yilda Orol dengizining qurigan tubida o‘rmon plantatsiyasi barpo etish kampaniyasi boshlangan bo‘lsa, minglab ko‘ngilli yurtdoshlarimiz mehnati tufayli 1,7 million gektardan ortiq hududda “yashil qalqon” hosil qilindi. Bu sa’y-harakatlar hozir ham davom ettirilyapti.

Xayrli tashabbusning “qo‘l-qanotlari”

Qorovulbozor — Buxoro viloyatining olis tumanlaridan. Sahro bag‘rida joylashgan bu zaminni yoshi ulug‘lar “cho‘lquvarlar tumani” deydi. Turli millat vakillari ahil-inoq umrguzaronlik qilayotgan tumanda ko‘plab sanoat korxonalari, jumladan, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi faoliyat yuritib kelmoqda.

Yashillikka qalbi oshufta tadbirkor Afzal Qo‘shayev bolaligidan nihol ekishga qiziqadi. Dastlab tomorqasini gulistonga aylantirgan bu inson ko‘p o‘tmay, kattaroq ko‘lamda ishlar qilishni istaydi. Bundan yigirma yil avval shu joylarga kelib, cho‘l hududidan yer oldi. Sabr bilan mehnat qilib, obod etdi. Bugun u barpo etgan boqqa qadam qo‘yar ekansiz, yerga tangadek oftob tushmasligidan hayratlanasiz. Bir paytlar shu bog‘ o‘rnida qumliklar bo‘lganiga ishongingiz kelmaydi. Qahramonimiz barchasiga ixlos va chinakam mehnat orqali erishgan.

Bu yerda qirq turdan ortiq daraxt nihollaridan tashqari o‘n turdagi shifobaxsh o‘simlik va giyohlarni uchratasiz. Avvaliga tadbirkor topinambur, rozmarin, lavanda, na’matak kabi o‘simliklarni shunchaki sinov tariqasida ekkanida ulardan daromad olish xayoliga ham kelmagan edi. Ko‘kka bo‘y cho‘zgan daraxtlar 1 million tupga yetgach, bog‘ hududini sayyohlik maskaniga aylantirish g‘oyasi paydo bo‘ldi. Har yili “Yashil makon” umummilliy loyihasi uchun shu yerdan 500 ming tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt niholini yetishtirib beradi.

Afzal Qo‘shayev shu bilan kifoyalanib qolgani yo‘q. U qum barxanlariga tutash boshqa joyda — Shofirkon tumanidagi “Navbahor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida ham tajribasini qo‘lladi. O‘zi tug‘ilib o‘sgan joylar emasmi, bu yerning pastu balandini, issiq-sovug‘ini yaxshi biladi.

Mana yetti yildirki, yaxshi niyat bilan ketmon urilgan yer epaqaga kelib, obod maskanga aylangan. Bu yerda yetishtirilayotgan mevali va manzarali nihollar nafaqat Buxoroda, balki boshqa viloyatlarda ham xaridorgir. Har yili 50-60 ming tupgacha nihol sotilayotgani daromad salmoqli ekanidan darak. O‘tgan yili dekabrda bu yerda rivojlanayotgan nihollar 200 ming tupdan ortiqni tashkil etdi. Ularning parvarishi bilan yigirmadan ziyod ishchi band.

Nihollar olingach, o‘rniga mevali daraxtlar danagi ekib chiqilyapti va unib-o‘sishi uchun zarur choralar ko‘rilyapti. Ushbu xayrli tashabbus tumanning Mingchinor, Xo‘ja Orif, Navbahor mahallalarida yashovchi aholi orasida kundan kun ommalashmoqda. Odamlar bu ishi bilan loyihaga “qo‘l-qanot” bo‘lish orqali yaxshigina daromad topmoqda.

Nihollar zaxirasi ham alohida masala

2024-yilda umummilliy loyiha doirasida mamlakat bo‘yicha 80 million tup, viloyat bo‘yicha esa 6 million tupdan ziyod daraxt niholi o‘tqazish reja qilingandi. Ko‘pning sa’y-harakati va uyushqoqligi sababli bu ko‘rsatkich ortig‘i bilan ado etildi. Nihol o‘tqazish tadbirlarida viloyat sharoitiga mos daraxtlar tanlandi. Masalan, M-37 “Samarqand — Buxoro — Turkmanboshi” xalqaro yo‘lining Jondor va Qorako‘l tumanlaridan o‘tuvchi qismida obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlari bajarildi. Yo‘lning ikki yoqasi (jami 50 gektar)da tut, archa, gujum va saksovul singari daraxt hamda buta ko‘chatlari qadalib, “yashil belbog‘” yaratildi.

Buxoro tumanidagi “Bog‘idasht” mahalla fuqarolar yig‘ini va Buxoro shahriga yondosh hududda “Yangi O‘zbekiston” bog‘i barpo etilgani ham muhim voqealardan bo‘ldi. Foydalanilmay kelinayotgan bu yerni ilgari shahardan tunuka to‘siqlar ajratib turardi. Endi 35 gektar yerga akatsiya, yapon sakurasi, chinni gujum, archa, sadaqayrag‘och, kashtan, katalpa kabi manzarali daraxt nihollari o‘tqazilib, bu joy obod maskanga aylantirildi.

Yo‘lsozlar ham bu jarayondan chetda qolgani yo‘q. Kuzgi mavsumda viloyatning shahar va tumanlaridagi yo‘l yoqasida 500 mingga yaqin gujum, tut, terak, o‘rik, gilos singari mevali va manzarali nihollar o‘tqazildi. Tarkibida yigirmaga yaqin yo‘l korxonasi bo‘lgan Buxoro viloyat avtomobil yo‘llar boshqarmasi ishchi-xizmatchilari A-380 “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu” avtomobil yo‘li (Qorovulbozor tumanidan o‘tuvchi qismi) yoqasida dekabrda 50 mingga yaqin daraxt niholi va buta ko‘chati o‘tqazdi. Endi bu nihollar unib-o‘sishi uchun zarur choralar ko‘rilmoqda. Ayniqsa, cho‘l hududidagi nihollar tomchilatib sug‘orish yo‘li bilan parvarish qilinmoqda.

Loyiha doirasidagi tadbirlar tufayli Buxoro viloyatida ham yashil maydonlar kengayib boryapti. Eng muhimi, iqlimbop nihollarni tanlashga e’tibor qaratilayotgani mehnat samarasini kafolatlaydi. Bu havo ifloslanishining oldini olish bilan birga ekologik barqarorlikni ta’minlash, ayniqsa, so‘nggi paytlarda tez-tez kuzatilayotgan tuz va chang bo‘ronining oldini olishga xizmat qiladi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida bajarilgan ishlarni birgina maqolada ifoda etish imkonsiz. Lo‘nda aytganda, shahar va tumanlarda, korxona, tashkilot, muassasa, mahallalarda shunday yo‘nalishda aytishga arzigulik ishlar bajarildi. Asosiysi, bu jarayonda barcha ahil va vijdon amri bilan ishtirok etdi. Kun kelib bu ishlar mamlakat va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishiga, xalqimizning uzoq umr ko‘rishini ta’minlovchi omil bo‘lishiga ishonamiz.

Hamzabek TURDIYEV,
jurnalist

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Oramizdagi odamlar

Nurobod tumanining bir tomoni Qizilqum cho‘li bilan, bir tomoni Muborak cho‘li va boshqa tomoni Qarnob cho‘li bilan tutash hudud. Yozi jazirama-yu qishi izg‘irin, muttasil shamol esib turadigan bu manzilda biror giyoh undirish juda mahol yumush.

CHO‘LDAGI “YASHIL OROL”

Ana shunday sharoitda o‘z tashabbusi bilan yashil hudud yaratayotgan chorvador haqida eshitib, u haqda maqola tayyorlash maqsadida o‘sha yerga borishga qaror qildik. E’tiborimizni tortgan jihati, chorvador yigit o‘z kuchi bilan qariyb besh yuz gektar maydonga saksovul ekibdi. Hozir ham shu ishlarini davom ettirayotgan ekan.

Tan olish kerak, ba’zan erta ko‘klam hovlimizga ikkita cho‘p suqib qo‘yishga hafsala qilmay, keyingi yilga qoldiramiz. U bo‘lsa...

Safarimiz kuzning so‘nggi kunlariga to‘g‘ri keldi. Mayin yomg‘ir yog‘ib turar, maxsus mashinamiz eski bo‘lsada, loyli o‘nqir-cho‘nqir yo‘llardan, qir yonbag‘irlaridan ildam ketib borardi. Ba’zan tekis, ba’zan notekis yo‘llar, suv yig‘ilayotgan soyliklardan kechib o‘tardik. Yo‘lning esa oxiri ko‘rinay demasdi.

Toshli soy yo‘llaridan, ko‘lmaklardan chayqalib-chayqalib ketayotgan mashinadan xavotirlanib, “Biror joyda botib qolmaymizmi, qaytishimizgacha sel toshqini kelib qolmasmikan?” deb so‘rayman xavotirli ohangda haydovchidan.

“Sel kelib qolsa, bir kun qolarsiz mehmon bo‘lib, cho‘pon otarlari keng”, deydi hazilomuz tabassum bilan haydovchi. Shu tob ko‘z oldimdan cho‘lning o‘rtasidagi chorvadorlar boshpanasida, atrofda bo‘ri, shoqollar izg‘ib yuradigan g‘aribona qo‘nalg‘ada tong ottirish keldi...

Xayolimda Jek Londonning “Bir kunlik qo‘nalg‘a” asari voqealari gavdalandi. To‘g‘ri, bu yerlarda tun Yukon daryosi bo‘yidagidek izg‘irinli, u qadar dahshatli bo‘lmasa-da, baribir cho‘l sharoiti... U yerda bir kecha ming kechadek tuyulishi aniq. Xayolchan ketayotgan edik, sal nariroqda saksovullarni panalab ketayotgan bir narsa ko‘rindi. “Ana tulki”, dedi hamrohim o‘sha tomonni ko‘rsatib. Yo‘limizda ungacha yumronqozig‘u echkiemarlardan boshqa jonivor ko‘rinmayotgan edi.

“Bu atrofda bo‘rilar bo‘lmaydimi? Cho‘ponlarda miltiq bormi, bo‘rilardan qanday himoyalanadi?” so‘rayman haydovchi akadan.

“Bu joylarda tulki, shoqollar ko‘p, bo‘ri faqat qalin qor yoqqan paytlari bo‘lishi mumkin. Qaytishimizda kechga qolsak, balki shoqollarni ham ko‘rsatarman”, dedi hamrohim jilmayib va bu gap menga qanday ta’sir qilishini zimdan kuzatib.

“Cho‘l malikasi”

Biz yo‘lda davom etardik, mashina oynasigacha sachrayotgan loyga beparvo hamrohim mashinani xotirjam boshqarar, meni o‘sha olis hududga olib borishni, cho‘ponlarning chin hayoti bilan tanishtirishga astoydil kirishgan edi. Qirlarda kuzgi issiqdan qayta nish urgan shuvoqlar, do‘mpaygan saksovullar va yana qanaqadir o‘simliklar uchrardi. Shunda baland qirlar ustidan bir tekis shudgor izi va unda ko‘klagan saksovullarga ko‘zimiz tushdi.

“Cho‘l malikasi” deya ta’riflanadigan saksovul — cho‘lning najot daraxti. Qurg‘oqchilikka moslashgan bu nabotot namunasi biyday sahroda bioxilmaxillikni saqlab-ta’minlab beradi. Garchi baland o‘smasa-da, tarvaqaylab ketadigan shox-shabbalari cho‘l o‘simliklari rivojlanishida, jonivorlarning chang-to‘zondan himoyalanishida panoh vazifasini o‘taydi.

Respublikamizning yarmidan ko‘prog‘i cho‘llardan iborat. Ushbu cho‘l va yaylovlarning esa 40 foizida turli darajadagi yaylovlar degradatsiyasi yuzaga kelgan va ularning o‘rtacha hosildorligi 20-30 foiz kamaymoqda. Cho‘ldagi tabiiy yaylovlarni tubdan yaxshilashning asosiy vositalaridan biri esa tabiiy yovvoyi holda o‘sadigan saksovuldir. U cho‘lning asosiy daraxti, shu bilan birga, cho‘l hududlarda qum bo‘ronlarini to‘xtatuvchi eng afzal o‘simliklardan biri bo‘lib, cho‘l va yarim cho‘l hududlarining ekologik hamda meliorativ holatini yaxshilaydi. Yaratilgan saksovulzorlar yaqin atrofdagi yaylov hududlarning mikroiqlimini yaxshilaydi, mahsuldorligini oshiradi va chorva mollarini kuchli shamol, chang, qishki qor bo‘ronlaridan himoya qilish bilan birga qorako‘l qo‘ylari va tuyalarning ozuqa manbai hisoblanadi. Qahramonimiz ham mana shularni maqsad qilib, cho‘lda “yashil qalqon” bunyod etayotgan bo‘lsa, ne ajab.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 7 yoshli saksovulzorda shamol tezligi butunlay to‘xtaydi. Bir tup saksovul o‘simligi to‘rt tonna ko‘chuvchi qumni to‘xtata oladi. 1 gektar saksovulzor yil davomida 1 ming 135 kilo karbonat angidrid gazini yutib, 835 kilo kislorod ajratadi. Bu esa havo tarkibini yaxshilaydi, atrof-muhit ifloslanishiga chek qo‘yiladi.

Yomg‘ir yog‘sa, cho‘pon uyqusida ham kuladi

Yo‘lda ketarkanmiz, ora-chorada qo‘y-qo‘zilar ko‘rina boshladi. Hayron qolarlisi, ular hech bir qarovchisiz emin-erkin o‘tlab yurardi. Nihoyat, yana bir tepalik oshganimizdan so‘ng cho‘ponga ko‘zimiz tushdi. U bizga otarlar manzilini ko‘rsatdi.

Sal nariroqda yo‘qlab kelayotganimiz — chorvador G‘ulom Almatov bizni qarshi oldi va yaqin kelib, “Xush kelibsizlar, qadamlaringiz xayrli ekan, baraka keltirdingiz”, deya so‘rasha boshladi.

“O‘zimiz bilan yomg‘ir olib keldik, bu kishi mehmon”, deb tanishtirdi haydovchi akamiz. Ular yomg‘ir haqida qandaydir to‘lqinlanib gapirgani e’tiborimni tortdi. Yaylovlarni yayov kezarkanmiz, chorvador akamiz kamtarona so‘z boshladi.

— Cho‘ponlarni yo‘qlash uchun eng ajoyib vaqt — yomg‘ir yog‘ayotgan payt. Biz chorvadorlarda “Yomg‘ir yog‘sa, cho‘pon uyqusida ham kulib uxlaydi”, degan gap bor. Ishonsangiz, nigohlarimiz doim ko‘kka qadalgan. Osmondan baraka yomg‘iri tusharkanmi deb kutamiz. Yomg‘ir yog‘sa, dashtlar ko‘klaydi. Chorva to‘q bo‘ladi. Rizqimiz shu ob-havoga, injiq tabiatga bog‘liq. Shuning uchun cho‘ponnikiga yomg‘ir payti borgan inson eng aziz mehmon hisoblanadi, — deydi mezbon.

Prezidentimiz tashabbusi bizga madad bo‘ldi

Yo‘lda biz ko‘rgan saksovullardan qilingan “yashil qalqon”ga yondosh hududlarda ikkita traktor ishlayotgan, besh-olti chog‘li kishi esa uning ortidan yerga urug‘ sochar, ish juda qizg‘in ketayotgan ekan.

— Xitoylik bir inson yolg‘iz o‘zi cho‘lni obod qilganini ko‘rdim. Nega biz uddalay olmaymiz, deb aka-ukalar harakatga tushdik. Prezidentimizning yashil makon yaratish bo‘yicha tashabbuslari bizga madad bo‘ldi. O‘zimiz unib-o‘sgan shu cho‘lni obod qilishni, yashil belbog‘ yaratishni maqsad qildik. 500 gektar yerga o‘rmon xo‘jaliklaridan saksovul urug‘i olib kelib, avval traktorda yerni haydab, ko‘pchilik harakat qilib, bir oy davomida ekib bo‘ldik. Niyatimiz xolis ekan, bahor seryog‘in keldi. 90 foiz urug‘ ko‘kardi, hozir saksovul orasiga kavrak ekyapmiz, — deydi G‘ulom aka.

“Chorva ortidan bir necha haftalab piyoda yurganmiz”

Otarlar atrofida yem-xashak g‘aramlari xuddi Misr piramidalari shaklida baland qilib taxlab qo‘yilgan ekan.

— Chorva qishloviga hozirlik ko‘rib qo‘ydik. Xashak, yemishdan ko‘ngil to‘q,— deydi cho‘pon. — Qo‘ylarni kuniga ikki marta o‘tlatishga haydaymiz. Kunduz bir, kechasi bir.

Mashinadan tushganimdan buyon yomg‘irdan junjikib pana izlaganimga xijolat tortdim. Axir cho‘ponlar bir ketishda shu havoda besh-olti soatlab ketar ekan-da.

— 2022-yil bahori quruq kelib, qo‘ylarni Zomin tomonga haydab qaytdik. Piyoda yo‘l yurib, 20 kun deganda otarlarimizga yetib kelganmiz. Sovuq, jazirama degan narsalar biz, cho‘ponlar uchun ikkilamchi. Chorva bir kun joyida turib qolsa, ta’siri seziladi, — deydi chorvador. — O‘n uch yoshimda otamdan cho‘pon tayog‘ini olganman. Shunda bu kasbni o‘zimga taqdir qilganman. Ota-bobolarimiz shu kasbdan kun kechirgan. Biz, aka-ukalar ham cho‘ponlikdan oila boqyapmiz.

Otarlarni ko‘zdan kechirarkanmiz, chorva to‘q, qorako‘l qo‘ylari terisi judayam bejirim edi.

— Chorva naslini yaxshilab turish uchun qo‘shni viloyatlardan zotli qo‘ylar olib kelib turamiz. Ular bizdan olib ketadi. Bir paytlar qorako‘l teri olishda turli usullardan foydalanilgan, o‘shanda soni ko‘p-u sifati pasayib ketgan. Shu sabab nasl masalasida yangilanishlar qilib turishimiz taqozo etiladi, — deydi G‘ulom aka. — Qo‘zichoqlarning 90 foizini o‘stirishga qoldiramiz.

Tevarak-atrofni, chorvani ko‘zdan kechirib, cho‘pon uyi yoniga keldik. Uy atrofidagi katta-katta bo‘ribosarlar bizga yotsirab qarab, sal bezovtalandi-yu, saldan keyin ko‘nikdimi, indamay qoldi.

Cho‘ponning uyi men tasavvur etgandek g‘aribona emas ekan. Hartugul yonida “Kobalt” avtomobili turibdi.

Suhbat asnosida cho‘pon akamiz qo‘nalg‘asiga bir piyola choyga taklif etdi. Xushbo‘y, nordon choy e’tiborimni tortdi. Bu saksovul barglaridan damlangan choy bo‘lib, cho‘ponlar doim shunaqasidan ichar ekan. Bunday choy qon bosimini pasaytirib, odamga rohat bag‘ishlarkan. O‘zining xushbo‘y hidi bilan saksovul barglari zararli hasharotlarni haydash xususiyatiga ham ega.

Suhbat ancha davom etdi, otarlarni aylandik, qosh qoraya boshlagach, mezbon bizga bir kecha mehmon bo‘lishni taklif etsada, qaytishga chog‘landik. Baxtimizga yomg‘ir shashti sal pasaygan edi. Faqat ortga qaytadigan yo‘limiz xavfsiz bo‘lsin-da. Yo‘qsa...

Tavakkal qilib yo‘lga chiqdik. Kelishimizda sal g‘ashimizni keltirgan yomg‘ir qaytar chog‘i o‘zgacha tuyuldi. Mashina oynasiga urilayotgan baraka tomchilari cho‘ldagi behisob hayvonot va nabotot olamiga hayot baxsh etishi qalbimizga cheksiz taskin bag‘ishlardi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

Islohotlar samarasi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
IJTIMOIY HIMOYA MILLIY AGENTLIGI

Ijtimoiy himoya milliy agentligi hokimliklar bilan birga bu yil har bir mahallani to‘liq xatlovdan o‘tkazib, “kambag‘al oilalar portreti”ni ishlab chiqadi. Kambag‘al oila bo‘yicha individual dastur bo‘ladi. Iqtisodiy kompleks oilalarni kambag‘allikdan olib chiqish bilan shug‘ullanadi. Bunda eng katta mas’uliyat tuman hokimlari va sektor rahbarlari zimmasida bo‘ladi.

IJTIMOIY HIMOYA — INSONGA E’TIBORNING OLIY NAMUNASI

Naim OBLOMURODOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, tarix fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Ijtimoiy davlatning hayotiy asosi

Har bir ko‘ngli o‘ksik inson hayotiga quvonch olib kirish ma’naviy, axloqiy qadriyatlarimiz, tarixiy an’analarimiz, milliy ruhiyatimiz asosidir. Jahon tajribasi, rivojlangan mamlakatlar erishgan yutuqlar zamirida ham kambag‘allikni qisqartirish, muhtojlarga yordam ko‘rsatish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yuqori o‘rinda turadi.

“Inson qadri uchun” ezgu g‘oyasi atrofida birlashib, demokratik va erkin yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan keng qamrovli va jadal islohotlar xalqimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani ham bu hayotbaxsh sa’y-harakatlar samarasidir.

Dunyo amaliyotida ijtimoiy davlat maqomiga ega mamlakatlar iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan. Davlatning boshqaruv tizimi ijtimoiy yo‘naltirilgan, fuqarolik jamiyati har tomonlama shakllangan, turli ijtimoiy dasturlarni amaliyotga joriy etish tajribasi tizimlashtirilgan. Shu bilan birga, mazkur mamlakatlar har bir fuqarosini munosib turmush sharoiti bilan ta’minlash, yashash uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda fuqarolari oldida ko‘plab ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Ijtimoiy himoya tizimini samarali yo‘lga qo‘yishga rivojlangan davlatlarda ham tez va oson erishilmagan. Chunki bu yo‘nalish tegishli vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish, avvalo, jamiyatdagi muhitni, murakkab munosabatlarni o‘zgartirish, aniq va qat’iy tizimga solishni taqozo etadi.

Inson kapitali — adolatli jamiyat poydevori

Sohibqiron Amir Temur muayyan qonun-qoidalarni ishlab chiqib, davlatni boshqarishda ulardan foydalandi. U tuzgan qonun-qoidalarda jamiyatdagi mavjud barcha tabaqa va toifalarning qiziqish va manfaatlari inobatga olingan edi. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar barqaror bo‘lishida bu jihat muhim ahamiyatga ega. O‘z tuzuklarida Amir Temur bunday yozadi: **“Saltanatim ishlarini qonun-qoida va intizomga solib, saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim. Saltanatimni o‘n ikki toifaga bo‘lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham shu o‘n ikki toifaga bog‘lab tuzdim. Bu o‘n ikki toifani saltanatim falakining o‘n ikki burji va davlatim korxonasining o‘n ikki oyi deb hisobladim”.**

Mana shu toifalar tarkibiga Amir Temur davlatida yashagan aholining deyarli barcha qatlami kiritilgan edi. Ijtimoiy munosabatlar ham ushbu faoliyatdan kelib chiqqan. Albatta, buning uchun o‘sha hukmron tabaqa vakillarida va hukmdorlarda nafsini va g‘azabini tiya bilish, uzoqni ko‘ra olgan holda siyosat yuritish, hammaga adolatli bo‘lish, aql-idrok, og‘ir-vazminlik bilan ish ko‘rish kabi qator yuksak fazilatlar bo‘lishi shart edi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda keng tarqalgan talqinga binoan ijtimoiy davlat, eng avvalo, ijtimoiy adolat, fuqarolarining farovonligi, ijtimoiy himoyalangani xususida g‘amxo‘rlik qiladi. Bunday davlat aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari: ishsizlar, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlar, boquvchisidan mahrum bo‘lganlar, nogironligi bor insonlar, bolalar, keksalarni ijtimoiy himoyalash bilan uzviy siyosat yuritadi. Ijtimoiy yordamga muhtojlar salomatligi, yoshi, daromad olish imkoniyati cheklangani tufayli o‘zgalar ko‘magiga muhtoj shaxslar hamda oilalar bo‘lib, ular ijtimoiy yordamning bir yoki bir necha turidan foydalanishga haqli.

Bugun yurtimizda inson omiliga e’tibor oliy qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimizning **“Odamlar ertaga emas, olis kelajakda emas, bugun yaxshi yashashi kerak”** degan tamoyilni ilgari surishi va buni bugungi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishiga aylantirishida ham aynan shu mazmun-mohiyat mujassam. Xususan, mamlakatimizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori minimal iste’mol xarajatlaridan kam bo‘lmagan darajaga olib chiqildi.

Izchil tizim

Aholini ijtimoiy himoya qilish uchun ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimi — Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami va turlarini kengaytirish, tizim samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko‘makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta’minlash, ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari qamrovini kengaytirish masalalarini hal etish agentlikning ustuvor vazifasi etib belgilandi. Tuman (shahar)larda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Natijada ushbu tizimga 2 million 300 mingdan ziyod muhtoj oila, xotin-qizlar, yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar kafolatlangan ijtimoiy himoya bilan qamrab olindi. Bu ko‘rsatkich 2017-yilga nisbatan 4 barobar ko‘p demakdir. Shu bilan birga, so‘nggi uch yilda mamlakatimizda ko‘makka muhtoj 3 million kishining turmush sharoiti yaxshilanib, kambag‘allik darajasi 17 foizdan 11 foizga kamaydi.

Aslida, mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirishni umummilliy harakatga aylantirish jarayoni 2020-yilda boshlangan edi. O‘shanda 7,5 million kishi yoki 23 foiz aholining daromadi kambag‘allik chegarasiga yetmasdi. O‘tgan yillarda 3,5 million odamni daromadli qilish orqali 2023-yil yakuni bilan kambag‘allik darajasi 11 foizga tushdi.

Avvalo, ijtimoiy himoya qamrovi 4,5 karra kengaytirilib, o‘tgan yili 12,3 trillion so‘m yo‘naltirildi. Pensiya va nafaqalar miqdori ham 1,5 barobar ko‘paytirildi. Mahallada kambag‘allikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga 35 trillion so‘m kam foizli kredit, 7 trillion so‘mlik subsidiya berildi. Mahallalarni obod qilish, bog‘cha, maktab, tibbiyot, yo‘l, suv va elektr infratuzilmasi uchun 120 trillion so‘m ajratildi. Shuningdek, 260 ming gektar yer dehqonchilik qilib, daromad topishi uchun 800 ming kishiga bo‘lib berildi.

2020-yildan buyon 3 milliondan 5 million so‘mgacha oylik oladigan ishchilar 2 barobar, 5 milliondan 7 million so‘mgacha oluvchilar esa 3 barobar ko‘paydi. Bular natijasida kambag‘allik darajasi yiliga o‘rtacha 3 foiz kamayib boryapti. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, kambag‘allikni faqat pul tarqatish, nafaqa to‘lash bilan hal qilib bo‘lmaydi. Buning uchun kambag‘al oila a’zolarini o‘qitish, kasbga o‘rgatish va ish bilan ta’minlash muhim.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi hokimliklar bilan birga bu yil har bir mahallani to‘liq xatlovdan o‘tkazib, “kambag‘al oilalar portreti”ni ishlab chiqadi. Kambag‘al oila bo‘yicha individual dastur bo‘ladi. Iqtisodiy kompleks oilalarni kambag‘allikdan olib chiqish bilan shug‘ullanadi. Bunda eng katta mas’uliyat tuman hokimlari va sektor rahbarlari zimmasida bo‘ladi.

Adolatli taqsimot

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi, har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo‘qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot huquqiga ega ekani, qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdori rasman

belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emasligi mustahkamlab qo‘yildi.

Prezidentimizning 2022-yil 25-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni strategik hujjat bo‘ldi. Mazkur strategiyada 17 ta maqsadga erishish reja qilingan. Ularning har biri ehtiyojmand qatlamning turmushini, hayotiy kayfiyatini

ko‘taradi, faollikka undaydi, inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Barcha davlat idoralari faoliyatiga joriy etilgan xalq bilan muloqot tizimi ijtimoiy himoya bilan bog‘liq ko‘plab masalalar yig‘ilib qolganini ko‘rsatdi. Misol uchun, kam ta’minlangan oilalarga nafaqa belgilashda aniq mezonlar yo‘qligi, ajratilgan mablag‘ning real ehtiyojga nisbatan kamligi kabi muammolar ijtimoiy adolatga erishish imkonini bermayotgandi.

Qaysi oila qanday asosga ko‘ra nafaqa olishi kerak, degan dolzarb savolga qoniqarli javob topish mushkul bo‘lib qolgandi. Shunday holatlar kuzatilganki, ayrim oilalar uyida televizori yoki muzlatkichi borligi uchun nafaqa ololmagan.

Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘ning aynan muhtoj fuqarolarga yetib borishi, nafaqa miqdori eng zarur hayotiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga yetarli bo‘lishi juda muhim bo‘lib, ochig‘i, bu borada ham kamchiliklar oz emasdi.

Yaqin yillargacha jamiyatimizda imkoniyati cheklangan kishilarga davlat idoralari, davlat xizmatchilarining munosabati ayanchli holatda edi, desak adolatdan bo‘ladi. Davlatimiz rahbarining g‘amxo‘rligi, ehtiyojmand oilalardagi muhitni, kayfiyatni yaxshi bilishi natijasida ijtimoiy himoya bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ham butunlay yangi tizim yaratildi. Eslasak, qiyoslasak, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi o‘zgarishlar, yangilanishlar nafaqat qarorlar va dasturlarda, balki oilalar turmushida aks etayotganiga amin bo‘lamiz.

Xususan, kam ta’minlangan oilalarga nafaqa belgilash asoslari aniq qilib qo‘yildi. “Imkoniyati cheklangan kishilar” degan tushuncha davlat va jamiyatning nogironlarga nisbatan tor, bir yoqlama munosabatini ifodalab kelgan bo‘lsa, yangi islohotlar davrida, avvalo, qonunchilik o‘zgarib, “nogironligi bo‘lgan shaxslar” degan tushuncha istilohga kiritildi.

Shu asosda davlat va jamiyat nogironlarga imkoniyati cheklanganlar deb emas, balki shaxs sifatida munosabatda bo‘lishga o‘tdi. Bu munosabat uning huquqlari tan olingani va ro‘yobga chiqishi uchun imkoniyat yaratilayotganini anglatadi.

Ilgari muhtoj oilalar va fuqarolarning katta qismiga turli sabab va bahonalar bilan nafaqa tayinlamaslik holatlari kuzatilgan. To‘g‘risi, mablag‘lar ham kamlik qilgan bo‘lsa, keyingi yillarda mablag‘ miqdori bir necha barobar oshirildi. Ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, shu yil reyestrda bo‘lmagan yana 95 ming muhtoj odamga yordam ko‘rsatdi. 51 ming kishiga nogironlik belgilandi, 26 ming nafari protez oldi. Yotib qolgan 4 ming yolg‘iz keksa aniqlanib, ularga uyining o‘zida parvarish tashkil etildi. Nogironligi bor 5 ming bola bog‘cha-maktabga joylashdi. Bunday manzilli ishlar tufayli Xalq qabulxonalari va hokimliklarga ijtimoiy xizmat va yordam bo‘yicha murojaatlar 35 foiz kamaydi.

Uch oy oldin viloyat va tumandagi 14 ming rahbar 75 ming kambag‘al oilaga biriktirilib, ular bilan individual ishlash yo‘lga qo‘yildi. Natijada bu oilalardagi 17 ming odam doimiy ishga joylashtirildi, tadbirkorlik va tomorqa orqali 14 ming kishining daromadi oshirildi. 30 ming bola bog‘cha, to‘garak va kasbga o‘qitish bilan qamrab olindi, 45 ming muhtoj odamga tibbiy yordam ko‘rsatildi.

102 ta ijtimoiy xizmat mahalla darajasiga tushirildi. Masalan, oldin odamlar protez uchun har xil komissiyalar va poliklinikada 2 oy sarson bo‘lgan bo‘lsa, hozir bu masala 2 haftada mahallada hal etilmoqda. Shuning o‘zidan 100 ming odamning og‘iri yengil bo‘ldi. Odamlar protezni 95 ta ishlab chiqaruvchi orasidan elektron tizimda o‘zi tanlayapti, raqobat va sifat ham yaxshilandi. Nogironligi bor bolalarga qarab turish xizmati yo‘lga qo‘yilib, murojaatlar mahallada qabul qilinyapti. Bu 700 ota-onaning ishlashiga sharoit yaratdi.

Kambag‘allikdan farovonlik sari dadil qadam

Tarixan qisqa muddatda, atigi to‘rt yilda tizimli chora-tadbirlar o‘zining samarasini berib, uch milliondan ziyod vatandoshimizning turmush sharoiti yaxshilandi. Jahon banki o‘tgan yil may oyida e’lon qilgan “O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish yo‘li: xalqaro taqqoslash dasturi xulosalari” hisobotida O‘zbekiston bu sohada eng yuqori natijaga erishgan mamlakatlardan biri ekani qayd etilgani ham bejiz emas.

Jahon banki ekspertlari o‘rganishlar asnosida 2021-2023-yillarda mamlakatimizning qishloq joylarida 1,2 million (shaharlarda esa 400 ming) kishi kambag‘allikdan chiqarilganini qayd etdi. Yurtimiz bo‘ylab xususiy maktablar soni 2018-yildagi 30 tadan 2023-yilga kelib 350

tagacha ko‘paygan. Bu muayyan to‘lov evaziga sifatli ta’limni kafolatlovchi maktablarga aholining talabi, shunga yarasha moddiy imkoniyati ham oshib borayotganini dalillaydi.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, turizm maqsadlarida xorijga chiqqan fuqarolar soni 2016-yildagi 295 ming kishidan 2023-yilda 661 ming kishiga (o‘sish — 2,2 barobar), turizm xizmatlari importi 340 million dollardan 1,3 milliard dollarga yetgan.

Kambag‘allikka qarshi kurashish BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining yetakchi ustuvor yo‘nalishidir. Bunda birinchi maqsad 2030-yilga borib dunyo bo‘yicha kambag‘allikning barcha ko‘rinishlariga barham berishdan iborat. Bu jarayonda kambag‘allikka olib keladigan sabablarni aniqlash, ularning ta’sirini baholash va har bir mamlakatda ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo‘llash muhim. BMT hisobotlarida 2030-yilga borib o‘ta qashshoqlikda yashayotganlar soni jahonda 600 millionga yetishi, dunyo aholisining qariyb 7 foizi kambag‘allik chegarasidan past darajada hayot kechirishi prognoz qilinmoqda. Bugun insoniyatni tang vaziyatga solayotgan global muammolar, ayrim davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatu geosiyosiy kurashlar, iqtisodiy inqirozlar bu xavotirda jon borligini ko‘rsatadi.

Shunday murakkab vaziyatda O‘zbekistonning insonparvarlik va xalqparvarlik bilan yo‘g‘rilgan rivojlanish strategiyasi inson manfaatlariga yo‘naltirilayotgani barchamizni mamnun qiladi, zimmamizga katta mas’uliyat yuklaydi.

Ijtimoiy soha, ayniqsa, ta’limga ajratilayotgan mablag‘ miqdori yanada oshirilishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, chekka qishloq hududlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining moddiy-texnik holatini yanada yaxshilash, poytaxt va shaharlardan zamonaviy metodlar asosida ta’lim beradigan pedagoglarni ko‘proq jalb qilish samara beradi. Chunki sifatli ta’limsiz, yetuk kadrlarsiz buyuk kelajakni tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash sohasida kadrlar tanqisligi muammosi ham aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu yo‘nalishda ham davlatning ijtimoiy ko‘magiga jiddiy zarurat tug‘ilmoqda.

Ijtimoiy himoya davlatimiz tomonidan yuritilayotgan ijtimoiy siyosatning ham muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lgani sababli huquqiy asoslari ushbu ustuvorlikka to‘la mos bo‘lishi zamon talabidir. Tabiiyki, xalqimizning ana shunday intilishi va orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarish, har bir insonning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya etish, kafolatli daromad manbai, tibbiy xizmat va uy-joy, sifatli ta’lim bilan ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va ehtiyojmand aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi islohotlar yanada takomillashadi. Shuningdek, yurtimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishga mustahkam poydevor bo‘ladi.

O‘zbekistonning erkinlik, imkoniyatlar tengligi, adolat, birdamlik, ijtimoiy himoya va mas’uliyat prinsiplari hukmronlik qiladigan, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi so‘zsiz ta’minlangan, insonlarning keskin tabaqalanishiga yo‘l qo‘yilmaydigan va aholining barcha qatlamlari uchun munosib hayot sharoiti yaratilgan, kuchli “huquqiy-ijtimoiy davlat” sifatida rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishi yo‘lida xizmat qilish barchamizning asosiy maqsadimizga aylanishi zarur.

UCH OY OLDIN VILOYAT VA TUMANDAGI 14 MING RAHBAR 75 MING KAMBAG‘AL OILAGA BIRIKTIRILIB, ULAR BILAN INDIVIDUAL ISHLASH YO‘LGA QO‘YILDI. NATIJADA BU OILALARDAGI 17 MING ODAM DOIMIY ISHGA JOYLASHTIRILDI, TADBIRKORLIK VA TOMORQA ORQALI 14 MING KISHINING DAROMADI OSHIRILDI. 30 MING BOLA BOG‘CHA, TO‘GARAK VA KASBGA O‘QITISH BILAN QAMRAB OLINDI, 45 MING MUHTOJ ODAMGA TIBBIY YORDAM KO‘RSATILDI.

Shukuh

SHAFFOF TANLOVLAR, ochiq ijod maydoni ertamiz egalariga qanot bag‘ishlaydi

Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili deb nomlangan 2024-yil o‘ziga xos voqeliklari, turfa tafsilotlari bilan tarixga muhrlandi. Yil nomidan kelib chiqilsa, biznesni qo‘llash ham yoshlarni qo‘llashdir. Chunki ishbilarmonlik rivojlansa, birinchi navbatda, yoshlar ishli bo‘ladi. Shu ma’noda, bu yil minglab yoshlar davlatning qo‘llovi, e’tiborini hayotida har qachongidan ko‘proq his qildi. Xususan, ijod olamiga endi kirib kelayotgan yigit-qizlar madaniyat va san’at sohasidagi tub o‘zgarishlar samarasidan minnatdor.

San’atning turli yo‘nalishi bo‘yicha shaffof tizim asosida saralab olingan ko‘plab iste’dodlilar Xivada “Lazgi”, Jizzaxda maqom, Samarqandda “Sharq taronalari” festivallarida o‘zbekistonlik yoshlarning umidli vakili sifatida ishtirok etdi. Bo‘zatov festivali ishtirokchilari soni esa bu yil qariyb 250 mingga yetdi. Shuning o‘ziyoq ayni festivalning yoshlar hayotida ijobiy o‘zgarish yasayotgan maydonga aylanayotganidan dalolat.

Bu maydonda baxshichilik, an’anaviy ijrochilik, opera, estrada xonandaligi yo‘nalishlari bo‘yicha 158 yigit-qiz g‘oliblik uchun qizg‘in kurashdi. Mazkur tanlovning ikki karra g‘olibi, 15 yoshli Sevinch Jovliyevaga “Shuhrat” medali berilishi ham yoshlarga alohida e’tiborning bir ko‘rinishidir. Bundan behad ruhlangan Sevinch milliy maqomimizni dunyoga tanitishni diliga tugdi. So‘zining isboti o‘laroq italyan, turk, hind tengdoshlariga milliy maqom qo‘shiqlarimizni o‘rgatdi.

Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi yosh raqqos va raqqosalar tanlovi, Turg‘un Alimatov xotirasiga bag‘ishlangan yosh sozandalar, Ma’murjon Uzoqov va Jo‘raxon Sultonov nomidagi respublika ko‘rik-tanlovlarida ham ko‘plab yoshlarning bu buyuk san’atkorlarga munosib izdosh ekanini ko‘rdik. Yosh qiziqchilar va askiyachilar o‘rtasida Marg‘ilonda o‘tgan “Xush kayfiyat” ko‘rik-tanlovi esa o‘zbek askiya san’atining bardavom ekaniga umid bag‘ishladi.

“Maqom yo‘nalishida ijro etilgan asarlar” tanlovida surxondaryolik Nodir Vahobov mahorat borasida katta avlod vakillaridan kam emasligini isbotlaganida ustoz san’atkorlarning sal avval aytgan quyidagi fikri xayoldan o‘tdi: “Mamlakatimizda maqomga e’tibor samarasini Jizzaxda yanada yaqqol ko‘rdik. Har bir ijrochining chiqishi o‘ziga xos. Qay birini tanlab olish ustida uzoq o‘ylanyapmiz. Eng muhimi, ular maqomni butun o‘rganib kelgani bilan bizni xursand qilyapti. Hammasi Gran-pri olaman degan katta maqsad bilan tayyorlangan. Qolaversa, ijroning o‘zi emas, dardi, qochirimi, nolasi ham joyida. Qisqa muddatda yoshlarning maqomni shu darajada o‘rgangani quvonarli. Tanbur, g‘ijjaklar ijrosi ham bir-biridan go‘zal. Bugun bularni qo‘llab-quvvatlasak, kelajakda yurtimizni dunyoga tanitishiga ishonchimiz komil”.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida ijodkor yoshlarni saralash, ular uchun ijodiy maydon yaratish, yangi iste’dodlarni kashf etish vazifasi qo‘yilgan. Shu ma’noda, Madaniyat vazirligi tomonidan “Ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha ijodkor yoshlarni izlab topish yo‘lida yangi tizim yaratish masalasini olg‘a surgani bilan ahamiyatli. Xo‘sh, bu qanday tizim, qaysi jihatlari bilan yangilik sifatida qabul qilinadi?

Asl iqtidor egalarining oliy ma’lumot olishiga yordam beriladi

Vazirlikning ijodkor yoshlar bo‘limi boshlig‘i Farrux Yunusov ushbu qaror loyihasi haqida ma’lumot berdi. Unga ko‘ra, loyihada yoshlarning madaniyat va san’at sohasiga qiziqishini yanada oshirish, ijodkor yigit-qizlarni tanlash va saralash jarayoniga raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, zamonaviy innovatsiya va integratsiya usullari joriy etiladi. Shuningdek, iqtidorli yoshlarni xalqaro miqyosda tanitish, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish ko‘zda tutilgan.

Qolaversa, sohaga oid tanlov va festivallar samarasi hamda natijadorligi oshiriladi. E’tiborli jihati, endi ijodiy texnolaboratoriya tashkil etilishi ko‘zda tutilyapti. Saralash ishlari faqat sohadagi emas, umumta’lim maktablaridagi ijodkor yoshlardan boshlanadi. To‘g‘ri, avval ham saralash tanlovlari bo‘lgan, lekin an’anaviy uslubda. Endi bunday ishlar teleloyihalar bilan amalga oshirilyapti. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy ta’limda madaniyat va san’atga qiziquvchi yoshlardan iborat “Ijodkor yoshlar klubi” tuziladi. Nafaqat sog‘lom, balki imkoniyati cheklangan yoshlarni ham madaniyat va san’atga jalb qilib, munosib imkoniyat yaratish uchun madaniyat markazlarida inklyuziv o‘qish yo‘lga qo‘yiladi. Madaniyat markaziga borayotgan, maktabda o‘qiyotgan iqtidorli, iste’dodli yoshlarni oliy ta’limga jalb qilish maqsadida ularning ijodiy baliga qo‘shimcha ball berish bo‘yicha taklif berilgani ham ezgu qadamlardan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishiladigan bu taklif talantli yoshlarning oliy ma’lumot olishiga xizmat qiladi. Madaniyatshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy izlanish qilayotganlar endi xorijga yuborilib, malakasi oshiriladi, tajriba almashadi. Umuman olganda, sohada kasbga mehri baland, fidoyi yoshlarni tarbiyalash mutasaddilarni mana shunday yangi-yangi loyihalarga undayapti.

Saralar shunchaki saralanmadi

Davlat dasturiga asosan, yanvar-fevral oylarida “Yangi O‘zbekiston iste’dodlari” respublika tanlovi tashkil etildi. Bu yil o‘tkazilgan barcha tanlovlar qizg‘in kechdi. G‘oliblarni kashf qilish oson bo‘lmadi. Buni saralash ishlari hududlarning o‘ziga tashlab qo‘yilmagani, Madaniyat vazirligi mas’ullari har bir tanlovni nazorat qilganidan ham bilish mumkin. Bu gal, ta’bir joiz bo‘lsa, ko‘chada ijod qilayotgan talantli yoshlar ham professionallar bilan bir sahnaga olib chiqildi.

— Masalan, farg‘onalik ijodkor yoshlarni vazir o‘rinbosarining o‘zi adolatli tarzda saraladi. Agar tanish-bilishchilik va boshqa holatlar bo‘lganida, avvalo, men bir chetda qolib ketgan bo‘lardim. Chunki otam oddiy dehqon, onam uy bekasi, — deydi sozandalik yo‘nalishida ijod qilayotgan farg‘onalik Ulug‘bek Hoshimov. — Respublika bosqichida ham g‘olib bo‘ldim. Meni poytaxtga chaqirib, O‘zbekiston xalq artisti Toir Qo‘ziyevga “Shu yigitni tarbiyalaysiz, kuy o‘rgatasiz”, deyishdi. Hozir ustozim bilan birga ishlayapmiz. Birinchi marta Navro‘z bayramida katta sahnaga chiqdik. Qozog‘istonda besh davlat Prezidentlari huzurida beshta musiqani O‘zbekiston nomidan chalganimdagi hayajonni o‘zingiz tasavvur qilavering. Ikki marta Janubiy Koreyada milliy madaniyatimizni namoyish qilib keldik. Turkiyadagi festivalda 1-o‘rinni egalladim. Bularning hammasi shaffof tanlov, chinakam ijodkor yoshlarni qo‘llash tufayli bo‘ldi. Bunday yoshlarni saralash davom etyapti. Bunga jiddiy kirishilgani yana ko‘plab iqtidorli sozandalar mehnatini yuzaga chiqarishiga ishonaman.

“Yangi O‘zbekiston iste’dodlari” tanlovining hududiy saralash bosqichlarida 1500 dan ortiq ijodkor qatnashdi. Shulardan 170 nafari tanlovning yakuniy saralash bosqichida ishtirok etdi. Bugun saralab olingan 100 dan ziyod yosh alohida reja asosida “Madaniyat va ma’rifat” telekanali orqali “Mahorat” ko‘rsatuvida ustoz san’atkorlar bilan ishtirok etmoqda. Shuningdek, Navro‘z umumxalq bayrami tomoshalari, “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali, B.Zokirov nomidagi zamonaviy estrada qo‘shiqchilari tanlovi va boshqa madaniy tadbirlarda yosh ijodkorlar ishtiroki ta’minlandi.

San’atimizning bo‘lg‘usi vakillari ustoz-shogird an’analari asosida tarbiya topayotir. Binobarin, Qoraqalpog‘istonning olis Mo‘ynog‘ida yurgan ijodkor yigit Abduhoshim Ismoilov bilan birga g‘ijjak chalayotganidan hayratda. Tajribali ustoz g‘ijjakchi yoshlar bilan astoydil ishlayapti. O‘zbekiston xalq artistlari Mansur Toshmatov, Toir Qo‘ziyev, Normurod Sultonov, Rushana Sultonova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Lola Eltoyeva ham o‘z yo‘nalishida munosib shogirdlarni qabul qilib oldi. Elmurod Islomov doirachilarga, Matluba Dadaboyeva an’anaviy xonandalik yo‘nalishiga qiziqqan yoshlarga bilim ulashyapti. Xonandalik yo‘nalishiga qatnayotganlarga Azim Mullaxonov, Abdulla Shomag‘rupov kabi ustozlar mahorat darslari o‘tyapti. Ilyos Arabov, Mohichehra Shomurodova kabi tajribali san’atkorlar Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqa san’ati institutida yoshlarda muayyan ko‘nikma shakllantiryapti. Suxandon yoshlar esa boshlovchi Jamshid Umrzoqovdan ravon nutq sirlarini o‘rganyapti. Turli hududdan kelgan iste’dodlilarning barcha xarajatlarini vazirlik qoplayapti.

“Ishonchingizni, albatta, oqlaymiz!”

— Bugun yoshlar oldida hech qanday to‘siq yo‘q. Qaysi yo‘nalishni mahkam tutib, o‘sha yo‘ldan olg‘a borsa, marra uniki. Jizzaxdagi maqom festivalida butun boshli “Xamsa”ni namoyish etdik. Maqom san’ati markazi teatr aktyorlari bilan hamkorlikda ijro etdi. Shuni ham yosh dramaturgimiz yozib, rejissyorga taqdim etgan. Bunday yoshlar dramaturgiyaga mehr qo‘yib, teatrda yoshi ulug‘lar bilan hamkorlikda ishlashi, bundan qo‘rqmasligi kerak. Vaholanki, aksariyatining jur’ati yetmaydi. Ularning maqsadi aslida o‘ziga kerakli eshiklarni ochish bo‘lmog‘i lozim, — dedi Farrux Yunusov.

Prezidentimizning 2024-yil 22-noyabrdagi “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori rejissura, dramaturgiya yo‘lida borayotgan yoshlarga katta umid bag‘ishladi. Chunki u bilan ta’sis etilgan mukofotlar munosib sohiblarini topadigan bo‘ldi.

— 2023-yilda “Eng yaxshi teatr aktyori” milliy mukofotiga munosib ko‘rildim. Davlatimiz tashabbusi bilan Qirg‘izistonning O‘sh shahridagi Bobur nomidagi O‘zbek drama teatri restavratsiya qilindi. U “Zahiriddin Muhammad Bobur” spektakli bilan ochildi. Boburdek buyuk sarkarda rolini ijro etish menga nasib etdi, — deydi Namangan viloyati musiqali drama teatri aktyori, “Yangi O‘zbekiston yulduzlari” milliy mukofoti sovrindori Abror Muhiddinov. — Bu mehnatimni ikki davlat rahbarlari yuksak baholaganidan benihoya quvondim. “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim. Bu fidokorlikni muntazam namoyon etishga bir turtki, mas’uliyatdir.

Tizimdagi 5 ta oliygoh — sohaga kadrlar tayyorlashning eng muhim bo‘g‘ini. Endi bu oliygohlarni tamomlaganlar umumta’lim maktablarida ishlashi mumkin bo‘ldi. Ular o‘quvchilar orasidan san’atga moyilligi borlarni oldindan ilg‘ab oladi. Iste’dodini rivojlantirishga yordam beradi. Shuning o‘ziyoq juda ko‘plab iste’dod egasining yo‘lini topib, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida katta ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbarining qaroriga asosan, “Ovoz”, “Artist” kabi qariyb 8 ta tanlov xususiy sektorga berildi. Bu ham ko‘plab talantli yoshlarni kashf qilishda erkin ijodiy maydon bo‘lib xizmat qilyapti.

Milliy estradamiz asoschisi Botir Zokirov haykalining ochilish marosimida estradamizning umidli vakili Sevara To‘lanova san’atkor repertuaridan jonli qo‘shiq kuylab, Prezidentimiz e’tiborini tortgan edi.

O‘shanda Sevara davlatimiz rahbariga “Maktabda o‘qib yurgan paytlarim Botir Zokirov qo‘shiqlarini tinglab, katta bo‘lsam, qo‘shiqchi bo‘laman, derdim. Botir Zokirov nomidagi ko‘rik-tanlovda 1-o‘rinni egalladim. Kelishingizni eshitib, kechasi Bo‘zatovdan uchib keldim. Festivaldagi taassurotimni aytsam, yurtimizda juda ko‘p talantli yoshlar bor ekan. Shu sohaning ichida bo‘lsam ham ularni ko‘rib qoyil qoldim. Milliy estradamizga asos solgan Botir Zokirov izdoshlari bo‘lamiz deb biz — yoshlar ishonchingizni oqlash uchun hamisha izlanishdamiz. Hali dunyo sahnalarini zabt etamiz. Ishonchingizni, albatta, oqlaymiz”, degan edi. O‘tgan yili “Yoshlar kuni”da unga “Kelajak bunyodkori” medali berildi. Bu e’tirof ham ko‘plab yoshlarda umid uyg‘otdi. Zero, bugun yalt etgan iste’dod o‘z holiga tashlab qo‘yilayotgani yo‘q.

Bugungi yondashuvlar, yangicha qarashlar minglab yigit-qizlarda nurli kelajakka ishonch uyg‘otdi. Shu ma’noda, 2024-yil o‘z nomini oqladi. Minglab taqdirlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan muvaffaqiyatli yil sifatida qadrli bo‘lib qoladi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mulohaza

KITOBXONLIK TARG‘IBOTIMIZGA MUHTOJ

Hozir ma’naviyatni, ma’rifatni har yerda targ‘ib qilish lozim bo‘lgan davr. Aks holda uning o‘rniga illatlar in qurib olishi bor gap. Bugun bir o‘zimning qo‘limdan nima kelardi, degan inson xato o‘ylaydi. Sababi, har qanday jism kichik zarralardan tashkil topgani kabi ulkan natijalar ham ko‘pchilikning harakati jamlanishi natijasida yuzaga keladi.

Internet, ijtimoiy tarmoqlar ommalashib, asosiy axborot manbalari shular bo‘lib qoldi, degan gapni tez-tez eshitamiz. Bugun barchamiz bu virtual muhitda ishtirok etyapmiz, ammo hammamiz ham undan foydalanish madaniyati va me’yorlarini to‘liq o‘zlashtirdik, deyishga haqlimizmi? Hozir bekorchiga ovunchoq ko‘p, shu bekorchilarni ovutish bilan tirikchilik qilayotganlar esa undan ham ko‘p. Gap insoniylikka, madaniyatga to‘g‘ri kelmaydigan kontentlar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi “vaqt o‘g‘rilari” haqida bormoqda.

Bir qaraganda, ijtimoiy tarmoqlarda hamma yengil-yelpi tomoshalar bilan band, degan taassurot paydo bo‘ladi kishida. Biroq aslida oxirgi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek segmentida saviyali kontentlar ko‘payib bormoqda. Bir kamchiligi — ularning targ‘iboti sekin bo‘lgani uchun ommalashuvi ham shunga yarasha. Holbuki, yaxshilikning targ‘iboti — xayrli amal.

Masalan, ko‘pchilik foydalanadigan Facebook platformasida “Kitobxonlar davrasi” nomli guruh bor. Guruh a’zolari yuz mingga yaqinlashib qolgan. Shaxsan o‘zim anchadan beri uning a’zosiman. Aynan shu guruh ta’sirida so‘nggi bir yilda 10 ga yaqin kitobni o‘qib tugatdim.

Guruhda barcha ishtirokchilar kitobxonlik bo‘yicha takliflari, o‘qib tugatgan kitoblari hamda o‘qimoqchi bo‘lgan asarlari haqidagi mulohazalarini ulashib borishi mumkin. Ayniqsa, guruhda berib boriladigan taqrizlar kishini asarlarga oshufta qilib qo‘yadi. Masalan, yaqinda guruhning bir a’zosi taniqli yozuvchi Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” asari haqida taqriz e’lon qildi. Taqrizni o‘qigach, bu asarni izlab topib, o‘qish ishtiyoqi tinchlik bermay qoldi.

Ushbu guruhda yoshi kattaroq ayol yozgan fikrni o‘qib qoldim: “Hech kim kitob o‘qimay qo‘ydi, deysizlar. Mana, ijtimoiy tarmoqda turib, 80 ming kishi kitob o‘qiyapti, kitoblar haqida gaplashyapti. Bo‘larkan-ku!”.

Kitob — insonning azaliy hamrohi. Usiz inson tafakkuri kamolga yetmaydi. Lekin so‘nggi paytlarda texnologiya taraqqiyotidan hovliqqan ko‘zimiz kitoblardan bir oz uzoqlashgandek tuyula boshladi. Bir men emas, boshqalar ham kitob o‘qimay qo‘ydi, degan xayol shakllanib qoldi go‘yo. Bu, shubhasiz, targ‘ibot kamligi natijasi.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga tez-tez borib turaman. Bu muhtasham bino oldidan o‘tgan aksariyat kishilar “Hozir kim ham kitob o‘qirdi, shundoq katta bino huvullab yotgandir” deb o‘ylashi mumkin. Lekin kutubxonaga kirib ko‘ring-chi. Mutolaa uchun bo‘sh o‘rin topishning o‘zi katta masala. Shovqinsiz, o‘qiyotgan asari dunyosiga sho‘ng‘ib ketgan minglab insonlarni ko‘rib, hali ma’rifat, kitobxonlik fazilatlari zarracha susaymaganiga guvoh bo‘lamiz. Biroq bu kutubxonadagi muhit haqida hamma ham bilavermaydi. Sabab yana o‘sha — targ‘ibot yetishmaydi.

Shahardagi biror yemakxonaga birinchi marotaba kirib, taomi manzur kelsa, uni tanish-bilishlaringizga ham aytgingiz keladi. Bu kishiga tasvirlab bo‘lmas qandaydir qoniqish hissini beradi. Xuddi ular sizning tavsiyangiz bilan shu yemakxonaga kelishsayu sizdan minnatdor bo‘lib, rahmat aytsa. Endi o‘ylab ko‘ring: do‘stlaringizga kutubxonalarni xuddi yemakxona kabi his-hayajon bilan maqtasangiz, shu tufayli ularning kitob o‘qishga mehri tushib qolsa, kutubxona sevimli manziliga aylansa. Bu holatda ular topadigan manfaatni va sizga yoziladigan savobni o‘zingiz tasavvur qilavering.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda kulgili lavha ko‘rib qolsak, oilamiz a’zolari, tanish-bilishlarimizga ulashamiz. Lekin yaxshi kitob haqidagi biror kontentni yaqinlarimizga ulashganimizni eslay olamizmi? Axir kulgili lavhalar insonning yuziga tabassum ulashsa, yaxshi kitob qalbga ziyo baxsh etadi-ku.

Bugun internetning o‘zbek segmentida bukblogerlar ko‘payib bormoqda. Sifatli kontent tayyorlash oson ish emas, u ijodkordan ko‘p vaqt va mablag‘ talab qiladi. Bu degani, ijodkor undan daromad ham topishi kerak. Shundagina faoliyatning davomiyligi ta’minlanadi. Lekin yurtdoshlarimizning ma’rifiy kontentlarga qiziqishini inobatga olsak, mamlakatimizda shunday kontentlar tayyorlash bilan tirikchilik qilish mumkinmi? Afsuski, juda qiyin. Internetning o‘zbek segmentidagi ma’rifiy blogerlar xalqimizning kuchli qo‘llab-quvvatloviga muhtoj. Ayni ehtiyojning o‘zi yaxshi odatlarimiz safiga ana shunday kontentlarni targ‘ib qilishni qo‘shishni talab qiladi.

Agar avlodlarimiz ma’rifatdan yiroq bo‘lib ulg‘aymasligini, odamzodning toza fitrati kitoblardan oladigan his-tuyg‘u va hayratdan mosuvo qolmasligini istasak, bugun e’tiborimizga muhtoj azaliy boyliklarimizni targ‘ib qilishni hamisha sharaf va mas’uliyat deb bilaylik.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 54.
38993 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimamatova
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 20:15 Topshirildi — 22:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05